


81,633.1  
A46

**S. ADILOVA, A. MIRAZIZOV, D. MIRAZIZOVA,  
SH. YUNUSOVA**

# *Analiy o'zbek tili*

(oliy o'quv yurti rus guruhlari uchun metodik qo'llanma)



FF000018509

TOSHKENT – 2010

33.1  
46

КБК: 81.633.1

A 46

S. Adilova us  
kollon.

Сибек

дикент:

421


81,63311

A46


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT**  
**PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**AMALIY O‘ZBEK TILI**

(oliy o‘quv yurti rus guruhlari uchun metodik qo‘llanma)



TOSHKENT – 2010




Ushbu qo'llanma oliy o'quv yurtlari ijtimoiy-gumanitar fakultetlarining rusiyzabon talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda talabalarning o'zbek tilida kasbga oid nutqiy ko'nikma va malakalarini takomillashtirish maqsadi ko'zda tutilgan.

Taqrizchilar: p.f.d., dotsent R.Abdulahatova,  
p.f.n., dotsent T.Yusupova

Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy Kengashining 2010-yil 28-yanvardagi 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© Nizomiy nomidagi TDPU



## So'zboshi

Ushbu o'quv qo'llanma rus guruhi talabalarining o'zbek tilida kasbga oid nutqiy ko'nikma va malakalarini takomillashtirish maqsadini ko'zda tutadi. Qo'llanma 2 qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi barcha ta'lim yo'nalishlari uchun umumiydir.

Ikkinchi qismda esa ta'lim yo'nalishlari bo'yicha matnlar berilgan bo'lib, ular ustida ishlash hamda topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalarining o'z kasbiy yo'nalishiga oid so'zlar va terminlarni o'zlashtirishi, nutqini takomillashtirishi maqsad qilib qo'yiladi.

# I QISM

## 1-mashg'ulot

**1-topshiriq. Matnni o'qing. Notanish so'zlar lug'atini tuzing.**

### **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OLIY TA'LIM TIZIMI**

Kadrlar tayyorlash milliy modelida uzluksiz ta'lim tizimining oliy ta'limiga alohida e'tibor qaratilgan. Uning maqsadi respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojiga o'z hissasini qo'shadigan, bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali faoliyat yuritadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq 1998-yildan oliy ma'lumotli mutaxassislarni ikki bosqichda – bakalavriat va magistratura bosqichlarida tayyorlash tizimi joriy etildi.

Talabalarni oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish davlat grantlari va to'lov-shartnoma asosida amalga oshiriladi.

O'zbekistonda oltmishdan ziyod oliy ta'lim muassasalari – universitetlar, institutlar va boshqa bilim dargohlari oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi. Mamlakatimizda texnik yo'nalishda ta'lim beruvchi 14 ta, gumanitar yo'nalishda – 15 ta, pedagogik yo'nalishda - 5 ta, tibbiyot sohasida - 5 ta, agrar yo'nalishda - 4 ta hamda bir qator ixtisoslashgan universitet va institutlar mavjud. Shuningdek, respublikaning turli shaharlarida oliy o'quv yurtlarining filiallari ishlab turibdi.

Hamkorlik natijasida mamlakatimizda yetakchi xorijiy universitetlarning filiallari faoliyat ko'rsatmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlar asosan o'zbek, rus, qoraqalpoq, ba'zi mutaxassisliklar bo'yicha ingliz, qozoq, tojik, turkman tillarida olib boriladi.

Respublikamiz oliy ta'lim maskanlarida elektron kataloglar, virtual kutubxonalar yaratilgan, elektron darsliklar va qo'llanmalar tayyorlash ishlari olib borilmoqda.

Professor-o'qituvchilar xorijdagi hamkasblari bilan tajriba almashish imkoniga egalar. Iqtidorli talabalar turli mamlakatlarga grant asosida o'qishga yuborilishi yo'lga qo'yilgan. O'qish va ilmiy izlanishda faollik ko'rsatgan talabalar Prezident stipendiyasi, Ulug'bek, Navoiy va boshqa

allomalarimiz nomi bilan ataluvchi maxsus stipendiyalarga sazovor bo'lishadi.

Mamlakatimiz talabalari o'rtasida fan olimpiadalari, ilmiy-amaliy anjumanlar, sport universiadalari, turli madaniy-ma'rifiy ko'rik-tanlovlar muntazam ravishda o'tkaziladi.

Bularning barchasi oliy ta'lim muassasasida o'qish yillarining "oltin davr" deb atalishiga sababdir.

**2-topshiriq. Matnga savollar shaklida reja tuzing va matn mazmunini so'zlab bering.**

**3-topshiriq. O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim bosqichlari haqida so'zlab bering, ularni chizmada tasvirlang.**

**4-topshiriq. O'ingiz o'qiydigan fakultetning ilg'or talabalari haqida maqola yozing.**

**5-topshiriq. Siz o'qiyotgan fakultet (bo'lim) haqida universitet yoki institutingizning Internet saytiga kiritilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni yozing. Ushbu ma'lumotlarni boyitish uchun fotosuratlar tanlang. Nima uchun ularni tanlaganingizni izohlang.**

**6-topshiriq. Kelajakdagi rejalariniz haqida kichik hikoya tuzing va daftaringizga yozing. Mumkin bo'lgan hollarda kelasi zamon fe'llarini hozirgi-kelasi zamon fe'llari bilan almashtiring. Matnning umumiy mazmunida qanday o'zgarish bo'lganini tushuntiring. Matn tuzish uchun quyida berilgan savollardan foydalaning.**

Namuna: - *Siz kelajakda kim bo'lmoqchisiz?*

- *Men kelajakda o'qituvchi bo'lmoqchiman.*

- *Men kelajakda o'qituvchi bo'laman.*

Siz kelajakda kim bo'lmoqchisiz?

Nima uchun aynan shu kasbni tanladingiz?

Bu kasbning murakkab tomonlari nimada?

Tanlagan kasbingizni puxta egallash uchun nimalar qilyapsiz?

Qaysi fanlarni qunt bilan o'rganish lozim?

Maqsadga yetish uchun Internet yoki masofaviy ta'lim tizimidan qanday foydalanish mumkin?

Universitet (institut)da olayotgan nazariy bilimlaringizni amaliyotda

qanday qo'llamoqchisiz?

Yaxshi mutaxassis bo'lish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanyapman deb o'ylaysizmi?

Yana qanday orzu-umidlaringiz bor?

### Lug'at

aynan – именно

qunt bilan o'rganmoq – тщательно изучать

masofaviy ta'lim – дистанционное образование

7-topshiriq. Haftalik dars jadvalingizni o'zbek tilida yozing, fanlarning o'zbekcha nomlanishiga e'tibor bering.

8-topshiriq. Tanlagan kasbingizga mos rolli o'yinda ishtirok eting (masalan, «Boshliq va xodim», «Yarim yillik hisobot muhokamasi»). Bunda o'z ixtisosligingizga oid terminlardan foydalaning.



### 2-mashg'ulot

## ONA TABIAT – QO'RIQXONA!

1-topshiriq. She'rni o'qing. Ma'nosini so'zlab bering. She'rni yod oling.

### BIR NIHOL

Yurtdoshim, bog'ingga bir nihol qada,

Bu nihol nomini Yaxshilik ata.

Niholing yoniga bir gul ekib qo'y,

U gulning ismini Go'zallik deb qo'y.

Gul-u niholingga baxsh etib hayot,

Suv ber va bu suvga Mehr deb qo'y ot.

Sendan farzandingga bog' qolsin, ey do'st,

Bog'ing Vatan degan nom olsin, ey do'st.

Erkin Vohidov

2-topshiriq. *Nihol, qadamoq, mehr, yaxshilik* so'zlarining ma'nosini aniqlang. Ushbu so'zlar ishtirokida birikmalar tuzing.



3-topshiriq. Mahallangiz, ko'changizga berilgan nom, uning tarixi haqida nimalar bilasiz? Siz mahallangiz obod bo'lishi uchun nimalar qilayotganingiz to'g'risida so'zlab bering. Hikoyangizni daftaringizga yozing.

4-topshiriq. Matnni o'qing. Uning mazmunini so'zlab berish uchun reja tuzing.

5-topshiriq. Quyidagi so'zlarning sinonimik qatorini yozing: yurtdosh, nihol, qada, yaxshilik, go'zallik, farzand, nom.

### TABIAT HIMOYAGA MUHTOJ

Otang ketsa agar, ota bo'larsan,  
Onaning o'rnini bosgay qiz, singil.  
Dengizing qurisa ne ham qilarsan?  
Qayga bosh urarsan, ey mungli ko'ngil?  
*Abdulla Oripov*

«Inson – tabiat farzandi», - deydi dono xalqimiz. Inson tabiat bag'rida vujudga keladi va kamol topadi. Kishilar qalbida go'zallikni his etish, uni ardoqlash, borliqqa mehr qo'yish tuyg'usini uyg'otish eng muhim vazifalardan biridir.

Havo, suv, oziq-ovqat, sanoat uchun xomashyo kabi o'ziga zarur bo'lgan hamma narsani inson tabiatdan oladi. Odamlar o'zlarini o'rab turgan tabiiy muhit bilan doimiy aloqada bo'lib, uni to'xtovsiz o'zgartirib borishadi.

Biroq inson tabiatga ikki tomonlama: ijobiy va salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Bir tomondan, inson tabiatni boyitadi. Ikkinchidan, aholining keskin ko'payishi, shaharlarning kengayishi, yangi industrial markazlarning vujudga kelishi, ayniqsa, mashinasozlik va og'ir sanoatning rivojlanishi, qishloq xo'jaligini kimyolashtirish natijasida biosfera, havo va suv ifloslanib, tabiiy muvozanat buzilib bormoqda.

Atmosferani toza saqlash, flora va faunani qirilib ketishdan asrab qolish, suv havzalarining sofliгинi ta'minlash va hokazolar barcha davlatlar ishtirokida hal etilishi kerak bo'lgan dolzarb xalqaro vazifalardir.

Diyorimizdagi ekologik muammolardan ko'pchilikning xabari bor: Orol dengizi qurib borishi bilan bog'liq tabiat muvozanatining buzilishi,

Barcha bir biriga shodlik ulashsin ,  
Sevinch, quvonch taqdim etishga shoshsin ,  
Yuraklarda sevgi , ehtiros toshsin ,  
Bugun bayram o'lkamda , Navro'zi olam !

Qizlar kutgan shahzodasin uchratsin ,  
Mard yigitga chin malika uchrasin ,  
Baxtga qamrov bo'lsin ular uychasi ,  
Bugun bayram o'lkamda, Navro'zi olam !

Maysalar bo'y cho'zib chechaklar unsin ,  
Bahor kelinchakdek bezaklar ilsin ,  
Vatanim chehrasi tabassum qilsin ,  
Bugun bayram o'lkamda, Navro'zi olam !



### 3-mashg'ulot

## SOG'LOM AVLOD – O'ZBEKISTON KELAJAGINING POYDEVORI

1-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

### ЧТО ВЛИЯЕТ НА ЗДОРОВЬЕ ЛЮДЕЙ?

Абул Баракат Кадыри ибн Мухаммад Насруллах (XV в.) в своей книге «Качкули Султания» («Книга султанов») пишет:

Следующие факторы плохо влияют на здоровье людей:

- употребление спиртных напитков, курение;
- неосторожное отношение с животными (ставить перед ними пищу, воду, которую человек хочет позже употребить);
- чересчур много кушать, есть слишком горькую пищу;
- расчесывать свои волосы чужой расческой;
- оставлять открытой посуду с чистой водой, вообще, с пищевыми продуктами;
- шить иголкой одежду, в которую в данный момент одет человек;
- быть злым и коварным, всегда думать о плохом.

А следующие факторы благоприятно влияют на здоровье людей:

- мало есть, мало говорить, меньше спать, душиться приятными духами, часто купаться;

- часто чистить зубы, чисто и красиво одеваться, вовремя стричь волосы и ногти;

- быть приветливым и искренним, добрым и радушным во всех отношениях, помогать слабым и малоимущим людям.

**2-topshiriq. Quyidagi so'zlarning o'zbekcha muvofig'ini va antonimlarini yozing.**

Плохо, позже, много, чистый, чисто, добрый, слабый.

**3-topshiriq. Yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari, yana qaysi holatlar inson salomatligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida fikringizni yozma bayon eting.**

**4-topshiriq. Savollarga javob bering:**

Bugungi kunda o'z bilimi, iqtidori, mehnati tufayli elga tanilgan insonlardan kimlarni bilasiz?

Kimga o'xshagingiz, taqlid qilgingiz keladi, nima uchun?

Siz jamiyatda munosib o'rin egallashingiz uchun, hurmat va obro' qozonishingiz uchun nimalar qilishingiz kerak?

Atrofingizda, kichik bo'lsa-da, foydali mehnat qilib, boshqalarga yordam berayotgan, o'rnak bo'layotgan, har kuni o'z vazifasini sidqidildan bajarib kelayotgan odamlar haqida nima deya olasiz?

Agar shu insonlar o'z ishini qilmay qo'ysa, nima o'zgaradi?

"Har bir odamning qadriga yetish kerak" deganda nimani tushunasiz?

**5-topshiriq. Mamlakatimizda qabul qilingan "Sog'lom avlod uchun" Davlat dasturi haqida bilganlaringizni aytib bering.**



**4-mashg'ulot**

## **O'ZBEKISTON SPORTI**

**1-topshiriq. Matnni o'qing, mazmuni yuzasidan suhbat uyushtiring.**

## UNIVERSIADA

Yurtimizda istiqloqlning dastlabki yillaridan farzandlarimiz qalbida sportga mehr va havas uyg'otishga alohida e'tibor berilmoqda. O'quvchi va talabalar, ayollar, nogironlar sport bilan shug'ullanishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish davlatimiz diqqat markazida turibdi. Shahar va qishloqlarda, maktab, litsey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlari qoshida eng zamonaviy talablarga javob beradigan sport majmualari va inshootlari barpo etilmoqda.

Bunday keng ko'lamli ishlar samara berayotgani barchaga ma'lum. Ruslan Chagayev va Rustam Qosimjonov, Muhammadqodir Abdullayev va Armen Bagdasarov, Dilshod Mansurov va Abdulla Tangriyev, Go'zal Xubbiyeva va Maftuna To'xtasinova, Rustam Saidov va O'tkirbek Haydarov kabi yoshlarimiz eng nufuzli xalqaro musobaqalarda yorqin g'alabalari bilan vatanimiz shuhratini tarannum etib, dunyo ahlini hayratda qoldirmoqda.

Uch bosqichdan iborat uzluksiz tizim - "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" o'yinlari yoshlarning sportga qiziqishini yanada oshirdi...

### Lug'at

havas – желание, увлечение, склонность

diqqat markazida – в центре внимания

majmua – комплекс

barpo etmoq – построить

keng ko'lamli – широкомасштабный

tarannum etmoq – воспевать

hayratda qoldirmoq – удивлять

uzluksiz tizim – непрерывная система

### 2-topshiriq. Quyidagi so'zlarning sinonimlarini toping:

diyor, mustaqillik, sog'liq, yutuq, qiyin, bellashuv, ixlosmand, kuylamoq, qurmoq.

3-topshiriq. Quyidagilardan foydalanib, ko'chirma gapli konstruksiyalar tuzing, ulardan o'zlashtirma gaplarni hosil qiling.  
Masalan:

- 200 metrga suzish bo'yicha musobaqalar ertaga bo'lib o'tadi, - dedi sharhlovchi. Sharhlovchi ertaga 200 metrga suzish bo'yicha musobaqalar bo'lishini aytdi.

Musobaqalarda uchinchi o'rinni Samarqand viloyati jamoasi egalladi. Umumjamo'a hisobida kumush medalga Namangan viloyati talaba-sportchilari sazovor bo'lishdi. Eng yuqori natijaga - universiada g'olibligiga Toshkent shahri jamoasi erishdi. Navbatdagi universiada Andijon shahrida o'tadi.

**4-topshiriq. Sport turlarining nomidan tashkil topgan krossvord tuzing.**



**5-mashg'ulot**

## **NUTQ USLUBLARI**

**1-topshiriq. Savollarga javob bering:**

Ixtisosligingiz bo'yicha yozilgan kitoblardagi so'zlar og'zaki nutqingizdagi so'zlardan nimasi bilan farqlanadi?

Gazeta maqolasida ko'proq qanday so'z va iboralarni uchratish mumkin?

Ariza yozganingizda odatda qanday qolip iboralardan foydalanasiz?

Badiiy asarlarni o'qiganingizda nima uchun ta'sirlanib ketasiz? Bunga qanday so'zlar sabab bo'ladi?

*Yordamchi material: badiiy takror, atamalar, balandparvoz gaplar, majhullik nisbatidagi fe'llar, shevaga xos so'zlar, tovushlarning tushib qolishi, o'zgarishi, undovlar, kanselyarizmlar, qolip va klishelar, tasviriy vositalar.*

**2-topshiriq. O'zbek tilidagi asosiy nutq uslublarini eslang va ularni daftaringizga yozib qo'ying.**

**3-topshiriq. Internet va gazetalardan olingan quyidagi xabarlar bilan tanishing, ularni rus tiliga tarjima qiling.**

*Qishki maktab*

2008-y. 6-fevral

Toshkentda Fuqarolik jamiyatini o'rganish instituti, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati hamda siyosiy partiyalar hamkorligida faol yoshlar uchun o'tkazilayotgan qishki maktab o'z ishini boshladi.

*Yoshlar forumi*

2007-y. 25-aprel

2006-yilning 30-martidan beri an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Yoshlar tashabbuslari forumi" to'rtinchi bor start oldi.

*Yoshlar tashabbuslari markazi — Urganchda!*

2007-y. 2-may

Xorazm viloyati markazi — Urganch shahrida «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jamg'armasi qoshidagi «Kelajak ovozi» yoshlar tashabbuslari markazi o'z ishini boshladi.

*Talabalar ilmiy anjumani*

2008-y. 8-may

Toshkent farmatsevtika institutida talabalar ilmiy anjumani muntazam ravishda o'tkazib kelinadi. Ushbu o'ziga xos an'analarga ega anjuman bu yil 64-marotaba o'tkazildi. Mazkur anjuman o'zbek farmatsevtikasiga ko'plab yetuk olimlar, amaliyotchilarni yetkazib berishga katta hissa qo'shgan ("Turkiston" gazetasidan).

**4-topshiriq. Fakultetingizda bo'lib o'tgan talabalar anjumani, adabiy kecha, chet ellik mehmonlar tashrifi va sh.k. haqida gazetaga maqola tayyorlang.**

**5-topshiriq. Muxbir sifatida fakultetingiz dekani, universitet kutubxonasi boshlig'i, o'qituvchingiz, bitiruvchi kurs talabalaridan jurnalningiz (telekanalingiz, internet saytingiz) uchun "intervyu oling". Uni rollarga bo'lib o'qing.**

◇◇◇

## **6-mashg'ulot** **BIZNES OLAMIDA**

**1-topshiriq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'z va so'z birlikmalarining ma'nosini izohlang.**

## **PUL TARIXIDAN**

Turli xalqlarda pul vazifasini turli xil tovarlar bajargan.

Masalan, Qadimgi Yunoniston, Rimda, arab va hind qabilalarida pul o'rnini *chorva* bosgan. XX asr boshlarida Afrikaning ba'zi bir xalqlarida *chorva tuyog'idan* pul o'rnida foydalanilgan. Tinch okeani va Afrika *qit'asi* xalqlarida qimmatli *chig'anoqlar* pul vazifasini bajargan. Markaziy Afrikada - *fil suyagi*, Qadimgi Misrda - *bug'doy*, Xitoyda - *tuz*, Mo'g'ulistonda - *choy ayirboshlash* jarayoni *pul muomalasi* o'rniga o'tgan.

Qadim zamonlardan beri pul vazifasini *qimmatbaho metallar* ham o'tab kelgan. Miloddan oldingi uch minginchi yillarda Shumer davlatida *asal* va *kumush* pul vazifasini bajargan. Kumush pullar miloddan oldingi ikki minginchi yillari Osiyo mamlakatlarida keng tarqalgan.

**2-topshiriq. Savdo-sotiq sohasida keng qo'llanadigan so'z va iboralarni yozing, ular ishtirokida dialog tuzing.**

**3-topshiriq. Matn bilan tanishing. Asosiy tavsiyalarni daftaringizga ko'chirib oling.**

### **BIZNES-REJA QANDAY ISHLANADI?**

O'z (shaxsiy) ishingizni boshlamoqchi bo'lsangiz, albatta biznes-reja tuzishingiz kerak. Mazkur jarayonni yengillashtirish uchun quyidagi besh bosqichda ish tutishni tavsiya etamiz:

1. Maqsadingizni aniqlang. Birinchi bosqichda kim uchun ma'lumot tayyorlashingiz kerak, kompaniyangiz haqida ular nimani bilishi kerakligini tushunib oling. Kompaniya faoliyatining qaysi tomonlarini bo'rttirib ko'rsatish maqsadga muvofiq, qaysilari haqida kamroq gapirish, qaysilari to'g'risida esa umuman gapirmaslik zarurligini belgilang.

2. Biznes-rejaning taxminiy mundarijasini tuzing. Maxsus talablarni hisobga olgan holda tuzilgan mundarija oddiy yoki murakkab bo'lishi mumkin. Biroq mundarija qanchalik batafsil yozilsa, biznes-rejani tayyorlash shuncha oson kechadi.

3. Keyingi bosqichda mundarijani diqqat bilan tekshirib chiqish kerak. Kelgusida biznes-rejangizni o'qiydigan odamlarning fikrini va o'z maqsadingizni e'tiborga olib, ahamiyatli deb hisoblangan ma'lumotlarni kengaytirish, juz'iy tomonlarni ilovada berish mumkin.

4. Biznes-rejani yozing. Ko'pchilik ishni bozorni o'rganish va moliyaviy ma'lumotlarni to'plashdan boshlaydi. Siz mazkur ma'lumotlardan rejaning strategiyasini belgilash uchun, taxminlar qilish uchun foydalanasiz. Biznes-rejaning qoralamasini tayyorlang. Bunda umumiy bo'limga katta e'tibor bering, unda boshqa barcha bo'limlarga tegishli ijro, moliyalashtirish masalalari bo'yicha umumiy ma'lumotlar mujassamlashtiriladi.

5. Biznes-rejani menejment bo'yicha mutaxassisga bering. U rejaning qamrovi, o'qishga qulayligi, bayonning mantiqiyligi, ishning to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirib chiqsin. So'ng ko'rsatilgan takliflarni hisobga olib, biznes-rejangizga o'zgartirishlar kiriting. Va, albatta, ushbu rejani muntazam ravishda yangilab boring.

Omad sizga yor bo'lsin!

### Lug'at

faoliyat – деятельность

bo'rttirib ko'rsatish – преувеличивать

taxminiy – приблизительный

mundarija – содержание, оглавление

batafsil – подробно

juz'iy – незначительный

qoralama – черновик

ijro – исполнение

moliyalashtirish – финансирование

mujassamlashtirmoq – вобрать в себя

qamrov – охват

bayonning mantiqiyiligi – логика в изложении

rasmiylashtirish – оформление

muntazam ravishda – постоянно

### 4-topshiriq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Подписав договоры, главы государств провели пресс-конференцию. Заработав свой первый миллион, он уже не смог остановиться. Миша, не выходя из комнаты, может приобрести, например, мебель или хотя бы пиццу. Человек, который всегда говорит смеясь, очень быстро надоедает окружающим. Не вставайте из-за письменного стола, не дописав сочинение до точки. Не проявив



инициативу, нельзя достичь успеха в бизнесе.

### 5-topshiriq. Matnni o'qing. Uni rus tiliga tarjima qiling.

#### BO'SH VAQT

Vaqtdan to'g'ri, unumli va samarali foydalanish kelajakni o'ylaydigan insonga xos xususiyatdir. "Vaqtning ketdi — naqding ketdi" deb bekorga aytilmagan. Bo'sh vaqt dam olish, madaniy hordiq chiqarish, kitob o'qish, aqliy va jismoniy qobiliyatni mustahkamlash va qaytadan tiklash uchun zarur. Bekorchilik esa turli jinoyatlar sodir etish, ichkilikka, chekishga ruju qo'yish, nopok ishlarga sharoit yaratadi.

Uyqu dam olishning lazmatli onlaridir, uxlash kishi organizmini kuchga to'ldiradi, aqlan tetik qiladi, mehnat qobiliyatini yuksaltiradi, salomatligini yaxshilaydi. Lekin ko'p uxlash yomon odat bo'lib, insonni lanj qiladi, ruhiy holatini, yuz qiyofasini o'zgartiradi.

Talabalar o'zlarining bo'sh vaqtlarida quyidagilar bilan shug'ullanishlari mumkin: kitobxonlik, estetik madaniyatni o'stirish, jismoniy chiniqish, aqliy kamolotga intilish, ekologik madaniyatni shakllantirish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va davom ettirish.

#### Lug'at

samarali – эффективный

naqd – наличный, здесь: деньги

hordiq chiqarish – отдыхать

tiklash – восстанавливать

bekorchilik – бездельничество

jinoyat – преступление

ruju qo'yish – пристраститься

porok – нечистый

lazmatli onlar – приятные минуты

tetik – бодрый

lanj – вялый

ruhiy holat – психическое состояние

jismoniy chiniqish – физическая закалка

aqliy kamolot – умственное совершенство

ekologik madaniyat – экологическая культура

### 6-topshiriq. Quyidagi gaplarni to'ldiring. Masalan: *Kitobxonlik*

— *mustaqil o'qish uchun badiiy, texnik, ixtisoslik bo'yicha kitob o'qish, gazeta, jurnallar o'qish.*

Estetik madaniyatni o'stirish - ... .

Jismoniy chiniqish - ... .

Aqliy kamolotga intilish - ... .

Ekologik madaniyatni shakllantirish - ... .

Milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va davom ettirish - ... .

*Yordam uchun so'zlar: ijodiy ish, kulolchilik, sayohat, ko'rgazma, to'garak, sayr, kashtachilik, teleko'rsatuv, ko'rik-tanlov.*

**7-topshiriq.** Bo'sh vaqtda nima bilan shug'ullanishingiz haqida gapirib bering.



7-mashg'ulot

**ISH QOG'OZLARI.**

**ARIZA. TUSHUNTIRISH XATI**

**ARIZA**

Ariza – eng ko'p qo'llanadigan hujjat turlaridan biri.

Ariza biror tashkilot yoki mansabdor shaxs nomiga yoziladi. Unda biror iltimos, taklif, shikoyat bayon qilinishi mumkin.

Ariza quyidagi zaruriy qismlarga ega:

1. Ariza yo'llanadigan tashkilot nomi yoki mansabdor shaxsning F.I.O.
2. Arizachining F.I.O. (to'liq), manzili yoki lavozimi.
3. Hujjat nomi.
4. Asosiy matn (talab, iltimos, shikoyat).
5. Ilova qilinadigan hujjatlar (agar zarur bo'lsa).
6. Arizachining imzosi, familiyasi, I.O.
7. Sana.

**1-topshiriq.** Quyidagi mazmunda arizalar yozing:

- kotiba vazifasiga, o'qituvchi (muhandis, sex boshlig'ining o'rinbosari, provizor, kichik ilmiy xodim, hisobchi, oila shifokori, tarjimon, soliq inspektori) lavozimiga ishga qabul qilishni so'rab;
- moddiy yordam ko'rsatishni so'rab;
- talabalar turar joyidan o'rin berilishini so'rab;
- yozgi oromgohga yo'llanma ajratilishini so'rab.

Ariza shakli

kimga

kimdan

## ARIZA

Asosiy matn

Ilova (zarur hollarda)

sana

imzo

I.O. Familiyasi

## TUSHUNTIRISH XATI

Tushuntirish xati xizmat, o'qishga aloqador masalani, uning biror jihatini yozma izohlovchi hujjatdir. Shaxsiy tushuntirish xatida xodim (talaba, o'quvchi) tomonidan sodir etilgan ayrim o'rinsiz xatti-harakat tafsiloti, uning sabablari bildiriladi va dalillar bilan izohlanadi.

Tushuntirish xati shakli

kinga

kimdan

## TUSHUNTIRISH XATI

Matn

O'qish (ishga) kelmaganligi, topshiriqni bajarmaganligi va boshqa holatlar izohlanadi.

Asoslovchi hujjat ilova qilinadi (agar bo'lsa)

(Ilova: \_\_\_\_\_)

Sana

Imzo

I.O. familiyasi

**2-topshiriq. Talaba nomidan fakultet dekaniga topshirilgan vazifa vaqtida bajarilmagani va buning sabablari haqida tushuntirish xati yozing.**

**3-topshiriq. Guruh yig'ilishi o'tkazilmagani va uning sabablari keltirilgan tushuntirish xati yozing.**

**4-topshiriq. Quyidagi so'z va birikmalar tarjimasini yozing va ularni yod oling.**

betobligim tufayli—

noqulay ob-havo tufayli

xomashyo vaqtida etkazib berilmaganligi sababli

ma'lumot o'z vaqtida berilmaganligi sababli

oilaviy sharoitlarimga ko'ra

◇◇

**8-mashg'ulot**

**TARJIMAI HOL. TAVSIFNOMA.TAVSIYANOMA**

## TARJIMAI HOL

Tarjimai hol - u yoki bu shaxs tomonidan o'z hayoti va faoliyati aks ettirilgan hujjat. U qat'iy shaklga ega emas, qisqa yo to'liq bo'lishi mumkin. Garchi ixtiyoriy tarzda yozilsa-da, unda ayrim majburiy qismlar bo'lishi shart:

1. Hujjat nomi.

2. Matn:

- muallifning F.I.O.

- tug'ilgan sanasi va joyi;

- ota-onasi haqida qisqacha ma'lumot (F.I.O. ish joyi va lavozimi);

- ma'lumoti va ixtisosligi;

- mehnat faoliyat turlari;

- oxirgi ish joyi va lavozimi;

- mukofot va rag'batlantirishlar;

- oilaviy ahvoli;

- manzili.

3. Sana.

4. Imzo.

Tarjimai hol shakli

### TARJIMAI HOL

**Men,** (familiyasi, ismi va otasining ismi), (tug'ilgan sanasi, joyi)  
\_\_\_\_\_ oilasida tug'ildim.

Oila a'zolarining familiyasi, ismi va otasining ismi, ish (o'qish) joyi, lavozimi)

(O'zining o'qish, mehnat va jamoatchilik faoliyati, olgan mukofotlari)

**Bo'ydoqman (turmushga chiqqanman, \_\_\_\_\_ ta farzandim bor)**

**Mening turar joyim:**

sana

imzo

I.O. Familiyasi

## 1-topshiriq. Tarjimai holingizni yozing.

### TAVSIFNOMA

Tavsifnoma- ma'lum bir shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, uning o'ziga xos xislat va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjat.

Odatda, tavsifnomaning birinchi qismida shaxsning mehnat faoliyati, ikkinchisida shaxsiy tavsifi, uchinchisida esa yuqorida bayon qilinganlarning xulosasi beriladi bu hujjat qanday maqsadda berilayotganligi ko'rsatiladi.

Tavsifnoma shakli

Tavsiflanayotgan shaxsning ismi, ota ismi va familiyasi, tug'ilga yili, millati, ma'lumoti, lavozimi

### TAVSIFNOMA

#### MATN

Tavsiflanayotgan shaxsning o'qish (mehnat) faoliyati, o'z ishiga munosabati, kasbiy mahorati, dunyoqarashi, axloqi, oilaviy sharoiti, mukofotlari haqida ma'lumot beriladi va xulosalanadi, tavsifnoma nima maqsadda berilgani ko'rsatiladi.

tashkilot rahbari

imzo

I.O. Familiyasi

muhr

sana

**2-topshiriq. Guruh murabbiyi nomidan kursdoshingizga tavsifnoma yozing.**

## TAVSIYANOMA

Tavsiyanoma - biror shaxsni ma'lum lavozimga yoki turli tashkilotlarga a'zo bo'lish uchun tavsiya etish maqsadida tuziladigan rasmiy hujjat. Tavsiynomada shaxsning barcha ijobiy va salbiy xususiyatlari qayd etiladi, tavsiyanomada esa uning ijobiy xususiyatlari ko'rsatilishi bilan birga, keyinchalik uning zimmasiga yuklatiladigan vazifani bajara olishiga ishonch bildiriladi va tavsiya etiladi.

Tavsiyanoma shakli

## TAVSIYANOMA

### Matn

Tavsiya etilayotgan shaxsning xususiyatlari: kasbiy malakasi, oilaviy, axloqiy jihatlari va faoliyati baholanadi; tavsiya etilayotgan lavozim, a'zolikka iunosibligiga ishonch bildiriladi.

imzo

Tavsiyanoma beruvchining lavozimi, I.O.  
familiyasi

sana

**3-topshiriq. Kursdoshingizni «Kamolot» YIH a'zoriga tavsiya qilib, tavsiyanoma yozing.**

◇◇◇

9-mashg'ulot

## ISHONCHNOMA. BILDIRISHNOMA

### ISHONCHNOMA

Ishonchnoma — muayyan muassasa yoki ayrim shaxs tomonidan ikkinchi bir shaxsga uning nomidan ish ko'rish uchun yozma tarzda ishonch bildirilgan vakolatli hujjat.

Xizmat va shaxsiy ishonchnomalar farqlanadi.

Shaxsiy ishonchnoma vakolat beruvchining ish joyi (u ishlamagan taqdirda fuqarolar o'z-o'zini boshqarish organi) tomonidan muhr bilan tasdiqlanishi lozim.

Ayrim hollarda tayyor (qolipli) ishonchnomalardan foydalaniladi (avtomobilni boshqarish uchun ishonch bildirilganda).

Rasmiy (xizmat) ishonchnoma shakli

### ISHONCHNOMA

Tashkilot, idoraning  
uchburchak muhri,  
ishonchnoma raqami va  
berilgan sana

Matn

Iшонch bildirilgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi (to'liq), narsalar olinadigan muassasa nomi, nimalar olinishi, ishonchnoma berilishi sababi

Iшонchnoma (sana) gacha amal qiladi

Rahbar lavozimi

(imzo)  
(muhr)

I.O. familiyasi



## Shaxsiy ishonchnoma shakli

### ISHONCHNOMA

Men, (ishonch bildiruvchining F.I.O.), (ishonchli shaxsning F.I.O.) ga (qavsda pasport ma'lumotlari) (ishonch mazmuni, ya'ni topshirilayotgan vazifa bayoni (ba'zan muddati bilan) ... uchun ishonch bildiraman.

Iшонch bildirgan shaxsning lavozimi, imzosi, ism-familiyasi

sana

yumaloq muhr

**1-topshiriq. Oylik stipendiyangizni olish uchun kursdoshingiz nomiga ishonchnoma yozing**

### BILDIRISHNOMA

Bildirish (bildirishnoma, bildirgi) – muayyan idora, uning rahbariga biror vrqea-tiga tegishli masalalar yuzasidan axborot berish maqsadida taqdim etiladigan hujjat.

Bildirishnoma shakli

(kinga, kimdan)  
xabar yuborilgan idora,  
rahbarning to'liq nomi – ga  
yo'llovchi shaxs lavozimi,  
to'liq nomi-dan

### BILDIRISHNOMA

matn sarlavhasi  
...haqida

Matn

Topshirilgan vazifa va unga aloqador masalalar haqida axborot beriladi, iloji bo'lsa, ilova ro'yxati keltiriladi.

Bildirishnoma

tayyorlagan

shaxs(lar) lavozimi

imzo (lar)

I.O.Familiyasi

sana

**2-topshiriq. Navro'z munosabati bilan o'tkazilgan hasharda bajarilgan ishlar yuzasidan bildirishnoma yozing.**



**10-mashg'ulot**

**MAJLIS BAYONI.**

**MAJLIS BAYONIDAN KO'CHIRMA.**

**HISOBOT**

**MAJLIS BAYONI**

Majlis bayoni – majlis, yig'ilish va sh.k. qatnashchilarining chiqishlari, shuningdek ularning qarorlarini qayd qiluvchi rasmiy hujjat. U qisqa (kun tartibi, ma'ruzachi va muhokamada so'zga chiqqanlarning ism-familiyasi, qaror) va to'liq (qatnashchilarning hamma fiklari keltiriladi) bo'lishi mumkin.

Bayonnomaning zaruriy qismlari:

1. Tashkilot muassasa nomi.
2. Sarlavha (kengashayotgan tashkilot yoki yig'ilish nomi).
3. Hujjat nomi (majlis bayoni).
4. Sana.
5. Raqami.
6. Yig'ilish o'tkazilgan joy.
7. Tasdiq xati (zarur bo'lganida).
8. Raislik qiluvchi va kotib ism-familiyasi.
9. Matn:  
- qatnashchilar ro'yxati yoki soni;

- kun tartibi;
  - eshitildi;
  - so'zga chiqdilar;
  - qaror qilindi.
10. Ilovalar (agar bo'lsa).
11. Imzolar.

**1- topshiriq.** Majlis bayoni shakli bilan tanishib chiqing va guruh yig'ilishi bayonnomasi tuzing.

**2- topshiriq.** Quyidagi so'z(birikma)larni tarjima qiling va yod oling.

taklif kiritdi  
 qo'llab-quvvatladi  
 bekor qilindi  
 ma'qullashni so'radi  
 ... ni tasdiqlashni so'radi  
 belgilab qo'yilsinki, ...

Majlis bayoni shakli

Tashkilot nomi

\_\_\_ - sonli MAJLIS BAYONI

Joyi

Sana

Rais

Kotib

Qatnashdilar:

### KUN TARTIBI

- 1.
- 2.
- 3...

1. ESHITILDI:

Ma'ruzachining ism-familiyasi (ma'ruza ilova qilinadi)

SO'ZGA CHIQDILAR:

So'zga chiqqanlarning ism-familiyasi - ...

**QAROR QILINDI:**

- 1.
- 2...

**2. ESHITILDI:**

Ma'ruzachining ism-familiyasi (ma'ruza ilova qilinadi)

**SO'ZGA CHIQQILAR:**

So'zga chiqqanlarning ism-familiyasi - ...

**QAROR QILINDI:**

- 1.
- 2...

Rais  
Kotib

imzo  
imzo

Familiyasi.I.O.  
Familiyasi.I.O.



## **MAJLIS BAYONIDAN KO'CHIRMA**

Zarur hollarda majlis davomida qilingan qarorlardan ko'chirma olinadi. Majlis bayonidan ko'chirma tegishli shaxslarning imzolari bilan tasdiqlanadi.

Majlis bayonidan ko'chirma quyidagi qismlardan iborat:

1. Tashkilot muassasa nomi.
2. Hujjat nomi (majlis bayonidan ko'chirma).
3. Sana (yg'ilish sanasi).
4. Shartli raqam.
5. Ko'chirma rasmiylashtirilgan joy.
6. Matn:
  - kun tartibi;
  - eshitildi;
  - so'zga chiqdilar;
  - qaror qilindi.
7. Imzolar.

8. Ko'chirmaning tasdiq xati.

Majlis bayonidan ko'chirmada qatnashchilar soni yoki ro'yxati keltirilishi mumkin.

Majlis bayonidan ko'chirmada faqat korxonaga yoki shaxsga etkazilishi kerak bo'lgan qismigina o'z ifodasini topadi. Bir necha qaror qabul qilingan bo'lsa, faqat tegishli masala bo'yicha qilingan qaror keltiriladi.

**3-topshiriq. Majlis bayonidan ko'chirma rasmiylashtirish tartibini ko'rib chiqing va uning namunasini tayyorlang.**

**4-topshiriq. Quyidagi qoliplashgan birliklarni eslab qoling, ularni qo'llab gaplar tuzing:**

zimmasiga yuklatilsin, belgilab qo'yilsinki, yuqori tashkilotlardan so'ralsin, ...ning ... -bandi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

Majlis bayonidan ko'chirma shakli

Tashkilot nomi

\_\_\_\_\_ - sonli MAJLIS BAYONIDAN KO'CHIRMA

Joyi

Sana

### KUN TARTIBI

3.

3. ESHITILDI:

Ma'ruzachining ism-familiyasi (ma'ruzaning qisqa bayoni)

QAROR QILINDI:

1.

2....

Rais  
Kotib

imzo  
imzo

Familiyasi.I.O.  
Familiyasi.I.O.

◇◇◇

## HISOBOT

Hisobot – xizmat faoliyati toʻrtasidan muayyan ish, vazifa yoki topshiriqlarning bajarilishi haqida maʼlumot beruvchi hujjat.

Shakl va mazmuniga koʻra bildirishnomaga oʻxshasa-da, hisobot qanday ishlar rejalashtirilgani, ularning bajarilganlik darajasi, bu boradagi kamchiliklar va ularni bartaraf qilish boʻyicha takliflar batafsil berilgani bilan ajralib turadi.

Hisobot shakli 1- shaxs nomidan yoziladi va hisobot beruvchi tomonidan imzolalanadi.

Hisobot shakli

Hisobot sarlavhasi (idora, xoʻjalik yoki shaxsning qachon, qanday faoliyati) ... haqida

## HISOBOT

Matn

Maʼlum muddatga belgilangan ish, vazifaning qay darajada bajarilgani haqidagi axborot bayoni.

lavozim nomi

imzo

I.O. Familiyasi

sana

**5-topshiriq. Pejagogik amaliyot davomida bajarilgan ishlar haqida hisobot tayyorlang.**

**6-topshiriq. Quyidagi feʼllarning oʻtgan zamondagi majhul nisbat (boʻlishli va boʻlishsiz) shakllarini hosil qiling, ular bilan gaplar tuzing. Masalan: gapirmoq - gapirildi, gapirilmadi; Majlisda talabalar jamoat ishlarida faol ishtirok etishlari kerakligi haqida gapirildi. Aynan qanday tadbirlarni oʻtkazish rejalashtirilgani haqida gapirilmadi:**

imzolamoq, qurmoq, ajratmoq, bajarmoq, baholamoq, rioya qilmoq, amalga oshirmoq.

## 2-QISM

### 1-topshiriq. Matnni o'qing.

#### ABU RAYHON BERUNIY

O'rta asr qomusiy olimi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy fanning ko'p sohalaridan xabardor bo'lgan. U Xorazmning Berun qishlog'ida tug'ilgan. Xorazm shaharlaridagi maktablarda, mashhur ustozlardan ta'lim olgan, qomusiy olim Abu Ali ibn Sino bilan zamondosh va yaqin do'st bo'lgan.

Abu Rayhon Beruniy 18 yoshida Xorazm rasadxonasida ilmiy ish olib bordi biroq o'rta asrdagi o'zaro urushlar olimning bir joyda ilmiy ish bilan shug'ullanishiga imkon bermagan. U uzoq yerlarda – Hindistonda, Kaspiy sohili va Bag'dodda kun kechirgan. Ko'pgina tarixiy voqea-hodisalarni o'z ko'zi bilan ko'rgan. Barcha ko'rgan narsalari va kuzatishlari uning asarlarida aks etgan.

Beruniy fizika, matematika, falakiyot, mineralogiya, geodeziya, geografiya, falsafa, filologiya va boshqa fanlar bo'yicha qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. U fanning turli sohalariga doir 150 dan ziyod ajoyib asarlar yozgan. Buyuk olimning «Geodeziya» kitobida shunday fikrni uchratamiz: «Har kuzatuvchi (olim) diqqat bilan o'lchasin, o'z ishlarini qayta-qayta tekshirib tursin, mumkin qadar kamroq g'ururlansin, g'oyat tirishqoqlik bilan ishlasin va mehnatdan hech mahal zerikmasin».

Abu Rayhon Beruniy o'lmas asarlari bilan jahonning eng buyuk olimlari qatoridan o'rin olgan. Ulug' olim 75 yoshida vafot etgan.

Buyuk olimning ilmiy-adabiy merosi o'zbek, rus, ingliz, nemis va boshqa tillarda nashr qilingan. Beruniyning butun jahon tarixi va madaniyatida tutgan o'mi beqiyosdir.

#### Lug'at

soha	- отрасль
qomusiy	- энциклопедист (энциклопедический)
rasadxona	- обсерватория
sohil	- берег
kuzatish	- наблюдение

falakiyot	- астрономия
o'lchamoq	- измерять
g'ururlanmoq	- гордиться
tirishqoqlik	- старание
hech mahal	- никогда

**2-topshiriq. Matnga savollar tuzing. Savollaringiz asosida Beruniyning hayoti haqida so'zlab bering.**

**3-topshiriq. Matndan qaratqich va tushum kelishiklaridagi otlarni topib, ulardan so'z birikmalarini hosil qiling va gaplar tuzing. Belgili va belgisiz qaratqich, tushum kelishiklarining qo'llanilishini tushuntiring.**

**4-topshiriq. Siz o'rganayotgan asosiy fanga taalluqli terminlardan 10 tasini yozing, ular bilan so'z birikmalari va gaplar tuzing.**



**1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.**

### ULUG'BEK

Ulug'bek (Muhammad Tarag'ay) mashhur o'zbek olimi va astronomidir. Buyuk lashkarboshi Amir Temur o'z nabirasi Muhammad Tarag'ayni g'oyat ziyrak va o'tkir zehnlil bo'lgani uchun Ulug'bek deb ataydi. Ulug'bek 15 yoshida Samarqand hokimi qi'lib tayinlanadi. Otasi Shohruhning vafotidan keyin esa temuriylar sulolasining boshlig'i bo'ladi.

Ulug'bek o'z hukmronlik yillarida zamonasining ko'pgina mashhur olimlarini Samarqandga to'pladi. 1430-yilda butun dunyoga mashhur bo'lgan rasadxona qurdirdi. U o'z atrofidagi olimlar bilan birgalikda «Yangi astronomik jadval» asarini yaratdi. Ushbu asarda falakiyotning nazariy asoslari va 1019 yulduzning holati aniq ifodlangan. Ulug'bekning yulduzlar, sayyoralar harakati jadvali va boshqa ilmiy kuzatishlari jahon astronomiya fanining rivojiga juda katta hissa qo'shdi. Mazkur ishlar dunyoning turli Burchaklarida zo'r ixlos va havas bilan o'rganilmoqda.

### Lug'at

lashkarboshi - воевода



ziyrak	- внимательный
o'tkir zehni	- сообразительный
sulola	- династия
nazariy asos	- теоретическая основа
ixlos	- любовь
havas qilmoq	- завидовать

## 2-topshiriq. Savollarga javob bering.

Mirzo Ulug'bek to'g'risida yana nimalarni bilasiz? Shu haqda do'stingiz bilan suhbat tuzing.

Matndagi ayrim gaplarni ko'chirib, ularni so'z birikmalariga ajrating.

**3-topshiriq. Ushbu savollarga yozma javob bering. Savollar tarkibidagi fizikaga oid atamalarning ruscha muvofiq'ini toping.**

Jismga ishqalanish kuchi ta'sir etyapti. Bu kuchning ishi nolga teng bo'lishi mumkinmi?

Ishqalanish kuchi ta'sir etayotgan jism biror masofani bosib o'tib dastlabki nuqtaga qaytib kelsa, ishqalanish kuchining ishi nolga teng bo'ladimi?

Jismga sirpanish, ishqalanish kuchi ta'sir etganda jismning mexanik energiyasi qanday o'zgaradi?

Uyda turgan stolga tinchlikdagi ishqalanish kuchi ta'sir qiladimi?

Bola kitob javonini zo'r berib itaryapti, lekin joyidan qo'zg'atolmayapti. Nyutonning ikkinchi qonunida kuch ta'sir etayotgan jism tezlanish oladi, deyiladi, bu erda bu qonun buzilmayaptimi?

Gorizontal tekislikda joylashgan jismni shu tekislikda joyidan surish uchun unga qanday kuch qo'yish kerak?

**4-topshiriq. Matnni o'qing. Matn yuzasidan savol-javob o'tkazishga tayyorlaning.**

## AKKUMULATOR

«Akkumulator» so'zi lotincha bo'lib, «to'plagich», «yig'gich» degan ma'nolarni bildiradi. Akkumulator elektr quvvatini to'playdi. Eng oddiy akkumulyator sulfat kislotaga botirilgan ikki qo'rg'oshin plastinkadan iborat. Elektr quvvatini to'plash uchun akkumulyator «zaryadlanadi»,

ya'ni u orqali elektr toki o'tkaziladi. Shunda qo'rg'oshin plastinkaning sirtqi qavati boshqa moddaga – qo'rg'oshin oksidiga aylanadi. Endi akkumulatorga elektr motor yoki lampochkani ulash mumkin. Qo'rg'oshin oksid yana qo'rg'oshinga aylana Boshlaydi, to'plangan elektr quvvatini «qaytarib» beradi va lampochka yonadi, elektr motor ishlay Boshlaydi. Akkumulator o'zi to'plagan elektr quvvatini «qaytarib» bo'lgach, u yana zaryadlanadi va elektr to'plagich qaytadan ishlay boshlaydi.

### Lug'at

to'plagich, yig'gich	- аккумулятор
elektr quvvati	- электроэнергия
qo'rg'oshin	- свинец
qo'rg'oshin plastinka	- свинцовая пластинка
yonmoq	- здесь: зажигаться
zaryadlanmoq –	- зарядиться

**5-topshiriq. Matnda uchragan atamalar lug'atini tuzing. Ularni o'zbek tilida izohlang.**

**6-topshiriq. Matndan bitishuv yo'li bilan bog'langan so'z birikmalarini toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.**



### 1-topshiriq. Matnni o'qing va unga sarlavha qo'ying.

Yuriy Alekseyevich Gagarin insoniyat tarixida yangi davrni – koinotni ilmiy o'rganish davrini boshlab bergan chog'ida 27 yoshli yigit edi. Fazoga qilingan ana shu birinchi parvozi tufayli uning ismi Bashariyat uchun mardlik va jasorat timsoli bo'lib qoldi.

Yuriy Gagarin 1934-yilda dehqon oilasida tug'ildi. Yura maktabda yaxshi o'qir, matematikani sevar, Bo'sh vaqtlarida playner va samolyot modellarini yasar edi. Y. Gagarin Saratov aeroklubida o'qib yurgan paytida mustaqil uchishni o'rgandi. Armiya safida xizmatni tugatgach, 1955- yilda Orenburg shahridagi 1-Chkalov harbiy-aviaiya bilim yurtiga o'qishga kirdi. Bilim yurtini a'lo baholar bilan tugatgach, 1957- yilning dekabridan Shimoliy flotning aviaiya qismlarida xizmat qildi. 1960- yilning mart oyida Yuriy Gagarin fazogirlar otryadiga qabul qilindi. 1961- yilning 12-

aprelida u insoniyat tarixida birinchi bo'lib koinotga parvoz qiladi. Birinchi fazogir uchuvchi Y.Gagarinning jasorati kishilar qalbida o'chmas iz qoldirdi.

Yuriy Gagarinning tabassum bilan tushgan surati juda mashhur. U mana shunday dilbar tabassum kishisi edi. Kamtarin va olijanob Y.Gagarinning fazoga uchishidan oldin aytgan «Ketdik!» degan so'zi shoirlarning she'r va dostonlarida, mamlakat fazogirlarining jasoratlarida yashayotir. Bu so'z insoniyatni koinotning sehrli dunyosiga chorlayveradi.

### Lug'at

fazo	- космос, вселенная
parvoz	- полет
bashariyat	- человечество
fazogir	- космонавт
jasorat timsoli	- символ мужества
kamtarin	- скромный
olijanob	- благородный
sehrli	- волшебный
chorlamoq	- призывать, манить
koinot	- космос, вселенная

### 2-topshiriq. Savollarga javob bering:

Gagarin qanday jasorat ko'rsatdi?

Gagarinning izdoshlaridan kimlarni bilasiz?

Mamlakatimizda kosmonavtikaning rivojiga qanday hissa qo'shilmogda?

O'zbek fazogiri A. Jonibekov haqida nimalarni bilasiz?

### 3-topshiriq. Savollarga javob bering, javobingizni asoslang.

1. Baron Myunxauzen o'zini o'zi sochidan tortib botqoqdan chiqarib (tortib) olganini aytadi. Bunday bo'lishi mumkinmi?

Nima uchun orqasiga og'ir ryukzak osib olgan kishi biroz oldinga egilib yuradi?

To'rtburchak (uchburchak) shakldagi ingichka plastinaning og'irlik markazi qayerda?

**4-topshiriq. Quyidagi masalalar shartini o'zbek tiliga o'giring, masalalarni yeching va yechish yo'lini o'zbek tilida tushuntiring:**

Мальчик бросил мяч массой 100 грамм вертикально вверх и поймал его в точке бросания. Мяч достиг высоты 5 м. Найдите работу силы тяжести при движении мяча вверх; вниз; на всем пути.

Какая сила действует на протон, движущийся со скоростью 10 мм/с в магнитном поле с индукцией 0,01 Тл перпендикулярно линиям индукции?

Сколько времени длилось никелирование, если на изделие осел слой никеля массой 1,8 г? Сила тока 2 А.

С каким ускорением движется электрон в поле с напряженностью 10 кВ/м? (А.П.Рыцкевич. Сборник задач по физике. М.1987)

**5-topshiriq. O'zingiz bilgan fazogirlar haqida so'zlab bering.**



**1-topshiriq. Quyidagi matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.**

### МЕХАНИЧЕСКОЕ ДВИЖЕНИЕ

Все, что реально существует в мире, все, что нас окружает: дома, промышленные сооружения, машины, птицы, животные, рыбы, растения, микроорганизмы, вода, воздух, свет, молекулы, атомы, протоны, электроны, радиоволны и т.д., все, что мы можем ощущать непосредственно или с помощью специальных приборов, в науке называют материей. Одно из основных свойств материи – движение. Самый простой вид движения – это механическое движение, при котором одно тело изменяет с течением времени свое положение относительно других тел. Примерами такого движения служат движения автомашин, теплоходов, мотоциклов, движение хоккейной шайбы и футбольного мяча, падение дождевых капель и снежинок, полет ракет, самолетов и др. Механическим движением тела называют изменение с течением времени его положения в пространстве относительно других тел.

**2-topshiriq. Matndagi fikrni o'zbek tilida davom ettiring.**

**3-topshiriq. Quyidagi namunadan foydalanib, geometriyadan testlar tuzing:**

To'g'ri burchakli uchburchakning bir kateti 8 sm ga teng, qarama-qarshi yotgan Burchak sinusi esa 0,8 ga teng. Gipotenuza va ikkinchi katetni toping:

- A) 10 va 6 sm; B) 6,4 va 6 sm;  
C) 10 va 6,4 sm; D) 10 va 8 sm;  
E) to'g'ri javob Berilmagan.

**4-topshiriq. Quyidagi ifoda va qisqartmalarning o'zbekcha izohini yozing:**

N; Z; Q; R;  $a=b$ ;  $\{$ ;  $;$ ; D (f); E(f);  $\min(a; b)$ ;  $\{a\}$ ;  $[a]$ .



**1-topshiriq. Quyidagi matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.**

### ПОИСК ИНФОРМАЦИИ В ИНТЕРНЕТЕ

Интернет – это безграничный океан информации. Информацию в Интернете хранят миллионы Web-страниц, достаточно знать ее электронный адрес. Информационная база Интернета постоянно обновляется. Происходит это не только за счет поступления новых сведений, но и за счет того, что устаревшая информация удаляется из сети. Адреса Web-страниц публикуются в специальных информационных бюллетенях. Уместить адреса всех Web-страниц в одном издании – задача непосильная. К тому же семейство Web-страниц растет очень быстро. Поэтому в Интернете имеется специальная система, именуемая поисковой.

Поисковая система – это специальная Web-страница, в которой хранятся адреса всех Web-страниц. В настоящее время к услугам пользователя предоставлены десятки поисковых систем. Наиболее известные среди них – Rambler, Aport, Yahoo и другие. Каждая поисковая система имеет в Интернете свой адрес. Например, [www.rambler.ru](http://www.rambler.ru); [www.aporu.ru](http://www.aporu.ru); [www.yahoo.com](http://www.yahoo.com).

**2-topshiriq. Matnda uchragan terminlar ishtirokida so'z**

**birikmalari va gaplar tuzing.**

**3-topshiriq. Internet tarmog‘i tarixi haqida gapirib bering.**

**4-topshiriq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling. Uni davom ettiring.**

### **КВАДРАТНОЕ НЕРАВЕНСТВО**

Если в левой части неравенства стоит квадратный трехчлен, а в первой – нуль, то такое неравенство называют квадратным.

Например, неравенство  $-3x^2 + 4x + 5 < 0$  является квадратным.

Решение неравенства с одним неизвестным называется то значение неизвестного, при котором это неравенство обращается в верное числовое неравенство. Решить неравенство – это значит найти все его решения или установить, что их нет.

**5-topshiriq. Quyidagi tengsizliklarni o‘qing va yechish yo‘lini tushuntiring:**

$$(x-2)(x+4) > 0;$$

$$(x-11)(x-3) < 0.$$

◇◇◇

**1-topshiriq. Matnni o‘qing. Matn yuzasidan savol-javob o‘tkazishga tayyorlaning.**

### **O‘LCHOV BIRLIKLARINI BIL, BU BILIMDIR**

**(Zahiriddin Muhammad Bobur)**

O‘lchov birliklari qadim zamonlardan beri mavjud. Kishilar ulardan xo‘jalikda, savdo-sotiqda, qurilish ishlarida doimo foydalanib kelganlar. Birliklarni hisoblash asboblari dastlab insonning qo‘l va oyog‘i bo‘lgan. Masalan: qadam, qarich, ikki en va hokazo. Shu taxlitda uzunlik, buyum o‘lchamlari, masofa o‘lchangan. Bu birliklardan hozirga qadar foydalanib kelinadi. Bir kunlik yo‘l, bir qop, bir kosa va hokazo birliklar keyinchalik paydo bo‘lgan.

Har bir xalq tomonidan qabul qilingan birliklar nomi turlicha, birliklarning o‘zi ham juda ko‘p bo‘lgan. Buning natijasida ko‘plab

qiyinchiliklar tug'ilgani tufayli keyinchalik butun dunyoda bir xil birliklar qabul qilindi.

Olimlar asrlar davomida o'zgaraydigan birliklar (etalonlar) tanlashni taklif qilganlar. Masalan, X. Gyuygens 1664-yili bir sekundda bir marta tebranuvchi mayatnik uzunligini uzunlik birligi qilib olishni taklif qilgan. Kilogramm, metr 1870-yillarda qabul qilingan. Metr etaloni 1799-yili yasaldi. Bir metr uchun Yer meridiani chorak qismining o'n milliondan bir bo'lagi qabul qilingan, lekin Yer meridiani qayta o'lchanganida (1870-, 1872-, 1875-yillar) metr etalonini o'zgartirishga to'g'ri keldi (oldingi o'lchash bilan keyingi o'lchashlar 0,08 mm ga farq qiladi). Shuning uchun 1799-yili yasalgan etalon xalqaro etalon deb qabul qilingan.

Boshqa o'lchov birliklari shu kabi o'zgartirilib, takomillashtirilib, aniqlashtirilib borilgan. Bu jarayon hozir ham davom etmoqda.

**M.Turdiyev**

**2-topshiriq. Matnda uchragan atamalar lug'atini tuzing. Ularni o'zbek tilida izohlang.**

**3-topshiriq. "Etalon" tushunchasi haqida gapirib bering.**

**4 -topshiriq. Hisob so'zlar (numerativlar) qatnashgan gaplar tuzing.**



**1-topshiriq. Matnni o'qing. Matn yuzasidan savol-javob o'tkazishga tayyorlaning.**

### **AYLANA VA DOIRA**

Atrofimizda dumaloq narsalar juda ko'p. Ularning ba'zilari doirani eslatadi. Bular — obi non va quymoq, medal va tangalar, limon bo'lagi... Yana boshqalari, masalan, halqa, velosiped g'ildiragi, uzuk kabilar aylanaga juda o'xshaydi.

Ayланaning doiradan nima farqi bor? Aylana bilan cheklangan narsalarning hammasi — doira. Aylana esa shu doiraning chetlarigina, xolos.

Aylana — faqat chiziq. Oq qog‘oz ustiga stakanni qo‘yib, atrofidan qalam yurgizib chiqsak, hosil bo‘lgan ingichka dumaloq chiziq aylana bo‘ladi. Aylana chizish uchun sirkuldan ham foydalanish mumkin. Agar sirkul bo‘lmasa, qog‘oz varag‘ini yog‘och taxtachga ustiga qo‘yib, o‘rtasiga bitta knopka qadang, tagiga pishiq ip bog‘lab qo‘ying, ipning ikkinchi uchiga qalam bog‘lang. Qalamni ip bog‘langan joyidan ushlab, tarang torting-da aylanma chiziq chizib chiqing, shunda aylana hosil bo‘ladi.

Doira — yassi shakl, uni qirqib tayyorlash mumkin. Hali chizgan aylanangizni atrofidan qaychi bilan qiyib chiqsangiz, doira hosil bo‘ladi. Sirkul qo‘yiladigan yoki haligi knopka qadaladigan nuqta aylana va doira markazi hisoblanadi.

Limon bo‘lagi va velosiped g‘ildiragi markazini topish oson.

### Lug‘at

eslatmoq — напоминать

obi non — лепёшка

quymoq — здесь: блинчик

halqa — кольцо, звено

chetlari — края

bog‘lamoq — завязать, привязать

tarang — тугой, туго

yassi — плоский

qiymoq — разрезать

**2-topshiriq. Matnda uchragan atamalar lug‘atini tuzing. Ularni o‘zbek tilida izohlang.**

**3-topshiriq. Geometrik shakllarning ruscha-o‘zbekcha lug‘anini tuzing.**

**4-topshiriq. Algebra va geometriya sohasida shuhrat qozongan o‘zbek olimlaridav kimlarni bilasiz? Ular haqida gapirib berimg.**



**1-topshiriq. Matnni o‘qing. Matn yuzasidan savol-javob o‘tkazishga tayyorlaning.**



## XXI ASR – AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASRI

Biz yashayotgan davrda texnika va texnologiyalar jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Kompyuterlarning yangi va yanada yangi avlodlari hech kimni ajablantirmay qo'ydi.

Uyali telefon aloqasi turmushimizda mustahkam o'rin oldi. Biz nafaqat ovoz yordamida suhbatlashishimiz, balki SMS (qisqa nomalar xizmati) orqali muloqot o'rnatishimiz mumkin. Shuningdek, bugungi kunda kichkinagina apparat yordamida suratga tushirishimiz, ovoz yozib olishimiz, sevimli kuy-qo'shiqlarni tinglashimiz mumkinligi bizga juda qo'l kelmoqda.

Internet imkoniyatlarimizni tobora kengaytirmoqda. Uning yordamida dunyoda ro'y berayotgan voqea-hodisalar haqida tezkorlik bilan xabar topishimiz, kasbimiz yoki sevimli mashg'ulotimizga oid bilim va materiallarni olishimiz, masofaviy ta'lim tizimi xizmatidan foydalanishimiz, yoqtirgan ashula va filmlarimizni ko'chirishimiz, virtual do'kondan mahsulot xarid qilishimiz mumkin.

Elektron pochta, ISQ, forum, chat va boshqa xizmatlar aloqa o'rnatish sohasida katta taraqqiyot ro'y berganini namoyish qilmoqda.

Avval plyonkaga tushirilgan tasvirni qog'ozga chiqarish katta mashaqqatga aylangan bo'lsa, hozir raqamli texnologiyalar yordamida bu ish tez va soz bajarilmoqda.

Ertaga nima bo'ladi – vaqt ko'rsatadi. Lekin bir narsa aniq: texnologiyalar inson hayotini qiziqarli va mukammal qilishga yordamlashaveradi.

### Lug'at

sur'at – темп

ajablantirmoq – удивлять

muloqot o'rnatmoq – установить общение

qo'l kelmoq – пригодиться

xarid qilmoq – покупать

taraqqiyot – развитие

ro'y bermoq – происходить

**2-topshiriq. Matnda uchragan atamalar lug'atini tuzing. Ularni o'zbek tilida izohlang.**

**3-topshiriq. "Texnologiya" tushunchasi haqida gapirib bering.**

**4-topshiriq. "Pedagogik texnologiyalar" mavzusida maqola yozing.**



**1-topshiriq. Matnni o'qing, tarjima qiling.**

**QORA DENGIZ**

1927- yil 11-sentabrdan 12-sentabrga o'tar kechasi Qrimda kuchli zilzila sodir bo'lgan. Uning kuchi 9 ball bo'lib, markazi Yaltadan 25 km uzoqlikda joylashgan. O'shanda tabiiy ofat oqibatida yana bir hodisa yuz berganki, u uzoq vaqtgacha negadir sir saqlangan: o'shanda Qora dengiz yongan...

Qora dengiz sir-sinoatlarga limmo-lim. Uning paydo bo'lishi ham o'ziga xos: Bundan besh yil muqaddam yer qobig'ining so'rilishi va iqlimning o'zgarishi (qisqa muzlik davrida) oqibatida "qadimgi Qora dengiz hovuzi" paydo bo'lgan. Olimlar keyingi uch ming yillikda tabiatning "tinch-osuda"ligi bois, "qadimgi Qora dengiz hovuzi" zamonaviy ko'rinishga ega bo'lgan, deyishmoqda.

Qora dengizning eng bosh anomaliyasi oltingugurt (serovodorod) qatlamidir. U kislorod tanqisligi bois organik moddalarning yoyilishi natijasida kelib chiqqan. Dengiz suvining 80% ni oltingugurt tashkil etadi. U tez yonuvchan va tez eriydigan modda bo'lib, havo bilan aralashganda portlashi ham mumkin. Xalqaro okeanograflar tatqiqotiga ko'ra, bugungi kunda oltingugurt qatlami 50 metrga ko'tarilgan. Mutaxassislar yaqinda Qora dengizning atigi 30 metr chuqurligida ham oltingugurt borligini aniqlashdi. Biroq, shunday bo'lsa-da, tabiatning yana bir mo'jizasi shundan iboratki, suv tarkibida oltingugurt qanchalik ko'p bo'lmasin, u dengiz sathiga chiqmaydi. Dengiz sathidagi ana shu qatlam qirg'oqda hayotning davom etishiga sababchi bo'ladi. Dengiz tarixiga nazar solinsa, necha yuz yildan buyon oltingugurtning suv sathiga chiqqani yoki insoniyatga zarari yetgani hech kuzatilmagan. Balki havotirga o'rin yo'qdir, ammo Tinch okeanidagi boshqa "Hovuzlar"ni o'rganish jarayonida to'plangan xulosalar havotirlanishga asos bo'lishi mumkin.

Masalan, 1980-yili Peru qirg'oqlari o'lgan baliqlar bilan to'lib ketgan. Natijada baliq zahirasi 6 barobarga kamaygan va bu ham yetmaganidek, dengizdan o'tayotgan kemalar qop-qorayib ketgan.

Bularning hammasiga oltingugurtning suv sathiga chiqib ketishi sabab bo'lgan. Amerikalik mutaxassislar 1983 - yili "Sputnik"dan Yer sharini kuzatishganida, Qora dengiz suvini qop-qora rangdagi oltingugurt qoplaganini kuzatishgan. Yana bir misol: Kamerunda 1986- yili Nios qirg'oqida yashovchi 1746 kishi atmosferaga bo'g'uvchi gazning tarqalishi oqibatida halok bo'lgan.

### Lug'at

zilzila -	землетрясение
tabiiy ofat -	стихийное бедствие
oqibat -	в следствии
hodisa -	происшествие
sir -	тайна, секрет
limmo -lim -	полным полно
muqaddam -	раньше
yer qobig'i -	земная кора
so'rilmog' -	всасываться
qatlam -	слой
portlamog' -	взрываться
tatqiqot -	исследование
mataxassis -	специалист
qirg'oq -	берег
havotir -	волнение
jarayon -	процесс
xulosa -	вывод, заключение
zahira	запас

**2-topshiriq. Matnga savollar tuzing. Savollar asosida uni qayta gapirib bering. Yangi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing va tarjima qiling.**

**3-topshiriq. O'z mutaxassisligingizga oid atamalarning o'zbek tilidagi muvofiq'ini topib gaplar tuzing va rus tiliga tarjima qiling.**

**4-topshiriq. Tanlagan kasbingiz bo'yicha yetuk olimlardan kimlarni bilasiz? Ular haqida kichik hikoya tuzing va gapirib bering.**

**1-topshiriq. Matni o'qing, tarjima qiling va qayta so'zlab bering. Matn yuzasidan savollar tuzing. Yangi so'zlar ishtirokida gaplar tuzib tarjima qiling.**

## O'ZBEKISTON DURDONASI

Farg'ona tabiiy-geografik o'lkasi Respublikamizning eng sharqiy qismida, Farg'ona vodiysida joylashgan bo'lib, uning atrofi baland tog'lar bilan o'ralgan. Vodiy qadimiy madaniyat maskanlaridan biri, Ahmad Farg'oniy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Habib Abdullayev kabi olim va davlat arboblarning vatanidir. Aholisi milliy an'analarni yaxshi saqlab qolgan, juda mehmondo'st. Vodiy tabiati juda go'zal va maftunkor hamda noz-ne'matlarga boy. Shuning uchun ham xalqimiz Farg'ona vodiysini "O'zbekiston durdonasi" deb ataydi.

Farg'ona vodiysi foydali qazilmalarga boy. Bu yerda neft, tabiiy gaz, ko'mir, oltingugurt, tog'mumi, oltin, slanest va boshqa xil boyliklar mavjud.

Vodiyning deyarli barcha soy va daryolari baland tog'lardan oqib tushadi. Vodiya eng ko'p suv keltiradigan daryo Norin bilan Qoradaryodir. Vodiya ko'llar ko'p emas. Oloy tizmasining shimoliy yon bag'rida Qurbon ko'li joylashgan. Ko'l suvi juda tiniq, sovuq, atrof tabiati esa juda go'zal. "Ko'li qurbon" tabiat yaratgan mo'jiza, go'zallik ramzidir.

Farg'ona vodiysiga ko'plab sayyohlar kelib turishadi. Vodiy tabiatining viqorli tog'lari, daryo ko'llari hamda mehmondo'st xalqining shaydolari ko'p. Farg'ona vodiysini chet ellik sayyohlar ham ziyorat qilib turishadi.

Xalqimiz dasturxonidan oltin vodiy dehqonlarining mehnatlari samarasi bo'lmish noz - ne'matlar ham joy olgan.

### Lug'at

- an'ana - традиция
- atrof - окружность
- vodiy - долина
- durdona - жемчужина
- ko'mir - уголь
- noz-ne'mat - дары природы

mafunkor - очаровательный

mo'jiza - чудо

qazilma - ископаемое

**2-topshiriq. Nuqtalar o'rniga berilgan sifatlardan mosini qo'yib ko'chiring.**

1. Qizlar ... paxtalarni zavq bilan terar edilar. 2 . Bog'imizda ... olma pishib yotibdi. 3. Qishlog'imiz yonida ... soy bor. 4. Uzoqdan ... tog' cho'qqisi ko'rinib turar edi. 5. Men kecha do'kondan ... kitoblar sotib oldim. 6. Bahor kelishi bilan daraxtlar ... barg yozadi. 7. Bahorning oxirlarida ... kunlar boshlanadi. 8. ... yomg'ir daraxtlarning tez o'sishiga yordam beradi.

Sifatlari: issiq, bahorgi, oppoq, baland, qizil, qiziq, katta, yashil.

**3-topshiriq. Mutaxassisligingizga oid atamalarning o'zbek tilidagi variantini topib ular ishtirokida gaplar tuzing va tarjima qiling.**

**4-topshiriq. Tanlagan mutaxassisligingiz bo'yicha taniqli olim va mutafakkirlardan kimlarni bilasiz? Ularning hayoti va ijodi haqida reja tuzib so'zlab bering.**

**5-topshiriq. Quyidagi qarama-qarshi ma'noli sifatlari ishtirokida mutaxassisligingizga oid gaplar tuzing.**

Katta-kichik, yaxshi-yomon, oq-qora, baland-past, uzun-qisqa, yosh-qari, achchiq-chuchuk, issiq-sovuq, o'g'ir-yengil.

000

**1-topshiriq. Matnni o'qing. Lug'atdan foydalanib matnni tarjima qiling. Matnga savollar tuzing. Savollar asosida uni qayta gapirib bering.**

### **YANGI TOPILGAN G'OR**

Sobir Tyan-shan tog'idagi sehrli g'or haqida juda ko'p eshitgan. Eng qizig'i shundaki, muz cho'qqisining biqinida g'or borligini hech kim bilmas, uni Sobirning dadasi Akbar aka topgandi.

Akbar aka – ko‘p alomat odam. O‘zi aslida shifokor, ammo har yili yozda – ta‘til olishi bilan katta ryukzak orqalab, toqqa chiqib ketadi. Dovonlar oshib, dalalarga tushib, yaylov kezib; inson qadami yetmagan cho‘qqilarga chiqadi. Turli dorivor o‘t- giyohlar yig‘ib keladi. Keyin uyda o‘tirib olib, Ibn Sinoning asarlaridan tortib eng so‘nggi tibbiy jumallar, eski, yangi qomuslar va kitoblarni titkilaydi. Yig‘ib kelgan giyohlaridan yangi dori – darmonlar tayyorlaydi.

Bultur ayni qaytadigan kuni, so‘nggi marta giyoh terib yurgan Akbar aka tog‘lar orasida bir g‘orga duch kelib qolibdi. G‘orning og‘zi juda tor bo‘lgani uchun ko‘zga tashlanmas va shu paytgacha hech kim ko‘rmagan ekan. Akbar aka g‘orning og‘zidan bir amallab ichkariga kiribdi. Qo‘l fonarini yoqib xangu mang bo‘lib qolibdi. G‘orning ichi juda keng ekan. Tepasida allaqanday o‘tlar o‘sib yotar, oyoq ostida esa turli-tuman toshlarmish. Akbar aka yolg‘iz o‘zi adashib qolmaslik uchun orqasiga qaytibdi. Shaharga qaytgach, Akbar aka yangi g‘or haqida Sobirga gapirib berdi. Keyingi yilga biri geolog, biri arxeolog ikkita o‘rtog‘i bilan ataylab g‘orni tekshirgani borishlarini ham aytdi.

#### Lug‘at

g‘or	пещера
cho‘qqi	вершина, холм
alomat	удивительный
dovon	перевал
giyoh	трава, растение (целебное)
bultur	в прошлом году
ataylab	наочно, специально

**2-topshiriq. Yangi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing va tarjima qiling.**

**3-topshiriq. Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling. Kelishik qo‘shimchalariga ta‘rif bering.**

Этот город очень большой. Мы живём в городе. Он уехал из города. Я поеду в город. Мы любим этот город. Улицы этого города очень чистые. Через город прошли танки. Это улица очень длинная. По улице проехал автомобиль. Длина этой улицы - 2 км. Он вышел на улицу. Он переехал из этой улицы в другое место. Я знаю эту улицу. На улице много людей.

4-topshiriq. O'z mutaxassisligingizga oid atamalarning o'zbek tilidagi muvofiq'ini topib gaplar tuzing va rus tiliga tarjima qiling.

5-topshiriq. Tanlagan sohangiz bo'yicha yetuk olimlardan kimlarni bilasiz? Ular haqida kichik hikoya tuzing va gapirib bering.



1-topshiriq. Matnni o'qing, tarjima qiling va qayta so'zlab bering. Matn yuzasidan savollar tuzing. Yangi so'zlar ishtirokida gaplar tuzib tarjima qiling.

### O'ZBEKISTON DURDONASI

Farg'ona tabiiy-geografik o'lkasi Respublikamizning eng sharqiy qismida, Farg'ona vodiysida joylashgan bo'lib, uning atrofi baland tog'lar bilan o'ralgan. Vodiy qadimiy madaniyat maskanlaridan biri, Ahmad Farg'oniy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Habib Abdullayev kabi olim va davlat arboblarning vatanidir. Aholisi milliy an'analarni yaxshi saqlab qolgan, juda mehmondo'st. Vodiy tabiati juda go'zal va maftunkor hamda noz-ne'matlarga boy. Shuning uchun ham xalqimiz Farg'ona vodiysini "O'zbekiston durdonasi" deb ataydi.

Farg'ona vodiysi foydali qazilmalarga boy. Bu yerda neft, tabiiy gaz, ko'mir, oltingugurt, tog'mumi, oltin, slanest va boshqa xil boyliklar mavjud.

Vodiyning deyarli barcha soy va daryolari baland tog'lardan oqib tushadi. Vodiyga eng ko'p suv keltiradigan daryo Norin bilan Qoradaryodir. Vodiyda ko'llar ko'p emas. Oloy tizmasining shimoliy yon bag'rida Qurbon ko'li joylashgan. Ko'l suvi juda tiniq, sovuq, atrof tabiati esa juda go'zal. "Ko'li qurbon" tabiat yaratgan mo'jiza, go'zallik ramzidir.

Farg'ona vodiysiga ko'plab sayyohlar kelib turishadi. Vodiy tabiatining viqorli tog'lari, daryo ko'llari hamda mehmondo'st xalqining shaydolari ko'p. Farg'ona vodiysini chet ellik sayyohlar ham ziyorat qilib turishadi.

Xalqimiz dasturxonidan oltin vodiy dehqonlarining mehnatlari samarasi bo'lmish noz - ne'matlar ham joy olgan.

## Lug'at

an'ana	- традиция
atrof	- окружность
vodiy	- долина
durdona	- жемчужина
ko'mir	- уголь
noz-ne'mat	- дары природы
maftunkor	- очаровательный
mo'jiza	- чудо
qazilma	- ископаемое

**2-topshiriq. Nuqtalar o'rniga berilgan sifatlardan mosini qo'yib ko'chiring.**

1. Qizlar ... paxtalarni zavq bilan terar edilar. 2. Bog'imizda ... olma pishib yotibdi. 3. Qishlog'imiz yonida ... soy bor. 4. Uzoqdan ... tog' cho'qqisi ko'rinib turar edi. 5. Men kecha do'kondan ... kitoblar sotib oldim. 6. Bahor kelishi bilan daraxtlar ... barg yozadi. 7. Bahorning oxirlarida ... kunlar boshlanadi. 8. ... yomg'ir daraxtlarning tez o'sishiga yordam beradi.

Sifatlar: issiq, bahorgi, oppoq, baland, qizil, qiziq, katta, yashil.

**3-topshiriq. Mutaxassisligingizga oid atamalarning o'zbek tilidagi variantini topib ular ishtirokida gaplar tuzing va tarjima qiling.**

**4-topshiriq. Tanlagan mutaxassisligingiz bo'yicha taniqli olim va mutafakkirlardan kimlarni bilasiz? Ularning hayoti va ijodi haqida reja tuzib so'zlab bering.**

**5-topshiriq. Quyidagi qarama-qarshi ma'noli sifatlar ishtirokida mutaxassisligingizga oid gaplar tuzing.**

Katta-kichik, yaxshi-yomon, oq-qora, baland-past, uzun-qisqa, yosh-qari, achchiq-chuchuk, issiq-sovuq, o'g'ir- yengil.



**1-topshiriq. Matnni o'qing, rus tiliga tarjima qiling.**



## SUV - NOYOB TABIIY BOYLIGIMIZ

Hozirgi vaqtda atrof-muhit va tabiiy resurslardan foydalanishning eng muhim muommolaridan biri aholini yetarli miqdorda toza ichimlik suvi bilan ta'minlashdir.

Umumiy sanoat korxonalari mavjud suv manbalarining 20% ni tashkil etadi. Sanoat ishlab chiqarishdan chiqqan oqava suvlar tarkibida o'ta zaharli moddalar, og'ir metallar mavjud. Kon-ruda sanoati korxonalari oqava suvlarida og'ir metallar ruxsat etilgan me'yordan 50 barobar, neft undan ham ko'p uchraydi. Tahliliy nazoratga ixtisoslashgan davlat inspeksiyasi mutaxassislari ma'lumotiga ko'ra, 626 sanoat korxonalaridan ko'p miqdorida yetarli tozalanmagan oqavalarni chiqib turibdi.

Sayyoramizning to'rtinchi uch qismini okean, dengiz, ko'l va daryolarning suvi egallagan. Ammo iste'mol qilishga yaraydigan toza ichimlik suv miqdori juda oz yerdagi jami suv zahirasining o'rtacha 0,6%ni tashkil etadi.

Suv muhofazasining muhim asosiy shartlaridan biri uni tejimli sarflashdir. Suvni tejashda oqava suvlarni yig'ib uni tozalash va qayta ishlash katta ahamiyatga egadir. Bu ish foydalanadigan suvni tejaydi, yerni suv sho'rlanishi va suvni ifloslanishini oldini oladi. Yapon yozuvchisi Xerosi Noma: "Mabodo kelgusida xayot tamom bo'lsa, u atom urushidan emas, suv etishmovchiligidan bo'ladi", degan edi.

Shuning uchun ham biz hayot manbai bo'lgan suvni toza saqlash va ko'paytirish choralarini ko'ra olsak, kelgusida xalqimizning sog'lom va farovon turmush kechirishini ta'minlagan bo'lamiz.

### Lug'at

oqava suvlar —сточные воды

tarkib — состав

zaharli — ядовитый

ichimlik suvi — питьевая вода

ixtisoslashgan — специализированный

tejamoliq — экономить

**2-topshiriq. Matn mazmunini gapirib bering. Savollar tuzing. Yangi so'zlar ishtirokida gaplar tuzib tarjima qiling.**

**3-topshiriq.** Quyidagi sifatlarni o'zbek tiliga tarjima qiling, qiyosiy daraja shaklini hosil qilib gaplar tuzing. Gaplar kasbingiz yoki mutaxassisligingizga oid bo'lishiga harakat qiling.

Sevimli, maroqli, besabr, murakkab, yoqimli, to'yingan, suvsiz, ishchan, unumli, samarali, serharakat, matonatli, qiziqarli, ko'k, zangori.

**4-topshiriq.** Quyidagi fe'llar ishtirokida gaplar tuzing va tarjima qiling.

Yedirmoq, yozdirmoq, kuldirmoq, sevintirmoq, sindirmoq, uyaltirmoq, o'qitmoq, bilmoq, yemoq, yozmoq, ishlamoq, ichmoq, yig'lamoq, ketmoq, olmoq, pishmoq, tushmoq, chiqmoq, o'qimoq, qaytmoq, ko'rmoq, yurmoq.

**5-topshiriq.** Quyidagi so'zlardan so'z birikmalari va gap tuzing, tarjima qiling.

Harita, yer, geografiya, kontur, meridian, iqlim, subtropik, mintaq, o'simlik, hayvonot, ekvator.

**6-topshiriq.** O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Вы сами его видели ? Да, я сам его видел. Ты сам читал его статью? Я сам его не читал. Мы сами вычистили арык. Они сами выпустили стенгазету. Она сама решила задачу. Дайте мне свою тетрадь. Я покажу тебе свою работу. Покажи мне свою фотокарточку. Мы сели на свои места. Они встали со своих мест. Карим отдал мне свою карточку.



**1-topshiriq.** Matni o'qing, tarjima qiling va gapirib bering.

### CHOTQOL QO'RIQXONASI

Respublikamizning yirik qo'riqxonalaridan biri - Chotqol tog'- o'rmon qo'riqxonasidir. Qo'riqxonada Toshkent shahridan 70 km. Sharqda Chotqol tizmasining

janubi - g'arbiy qismida joylashgan. Qo'riqxonada 1947 - yilda tashkil etilgan, maydoni 35,3 ming gektar.

Qo'riqxonaning tabiati go'zal, havosi musaffo, o'simlik va hayvonot dunyosi o'ziga xos, unda noyob o'simlik va hayvonlardan tashqari, ajdodlardan qolgan tarixiy yodgorliklar ham uchraydi. Mazkur tabiat maskanida ilmiy tadqiqot ishlari ham olib boriladi.

Qo'riqxonada iqlimi sernam va salqin. Iyul oyining o'rtacha havo harorati 24 daraja issiq, yanvar oyida 2 daraja issiq bo'ladi.

Qo'riqxonada xududida Boshqizimsoy, Shovvovsoy kabi soylar oqib o'tadi.

Chotqol tog'-o'rmon qo'riqxonasi o'simliklari, xilma xil, 600 turga yaqin o't o'simliklari, 10 tup daraxt va butalar o'sadi. Asosan lola, chuchmoma, bo'tako'z, toshkana, agra kabi gullar o'sadi. O'rmonlarda archa va mevali daraxtlar uchraydi. Bodom, o'rik, olma, nok, tog'olcha, do'lana kabi mevali daraxtlar, irg'ay, na'matak kabi mevalar o'sadi.

Daryo vodiylarida tol, terak, jingil, tog'olcha va xandon pista o'sadi.

Qo'riqxonaning hayvonot dunyosi boy va xilma xil. Oddiy kaltakesak, sariq ilon, suvilon va parrandalarning 93 turi mavjud. Bundan tashqari suvsar, bo'rsiq, bo'ri, tulki, ayiq, qor barsi kabi noyob hayvonlar ham yashaydi.

Qo'riqxonada yashovchi qor barsi (irvis) YUNESKONing "Qizil kitob"iga kiritilgan.

### Lug'at

ajdod — предки

ayiq — медведь

bodom — миндаль

bo'rsiq — барсук

do'lana — боярышник

yovvoyi — дикий

iqlim — климат

kaltakesak — ящерица

na'matak — шиповник

noyob — редкий

terak — тополь

tulki — лиса

to'ng'iz — кабан

qo'riqxonada — заповедник

**2-topshiriq. Matn yuzasidan savollar tuzib, gapirib bering va tarjima qiling.**

**3-topshiriq.** Nuqtalar o'rniga kerakli ot-ko'makchilarni qo'yib gaplarni ko'chiring va tarjima qiling.

1. Guruhimiz talabalari ... a'lochilar ko'p. 2. Sening ... kim turadi? 3. Shahar ... samolyot uchib o'tdi. 4. Institutimiz ... katta gulfzor bor. 5. Biz muzey binosi ... to'xtadik. 6. Uyimiz ... trolleybus, tramvay va avtobuslar qatnab turadi. 7. Uning mashinasi bino ... to'xtadi. 8. Ko'cha ... militsioner turibdi.

**4-topshiriq.** Mutaxassisligingizga oid atamalarning o'zbekcha variantlarini topib gaplar tuzing va tarjima qiling.

**5-topshiriq.** "Kasbim - faxrim" mavzusida hikoya yozib, o'qib bering.

**6-topshiriq.** Nuqtalar o'miga kerakli bog'lovchilarni qo'yib, gaplarni og'zaki tarjima qiling.

1. Biz fan ... texnika barq urib rivojlanayotgan davrda yashamoqdamz. 2. Yo'lovchilar kechasi bir joyda to'planadilar, ... hamma ertalab barvaqt o'midan turdi. 3. Rustam anhor... hovuz o'rtasidagi supaga joy qildirib berdi-da, o'zi qayoqqadir ketdi. 4. ... osmonni tutib ashula yangrar, ... allaqaerdan garmon tovushi eshitilib qolar edi. 5. Arava tinmay g'ijirlardi, yo'lovchilar ... so'zsiz borishardi.



**1-topshiriq.** Matnni tarjima qiling, savollar tuzib gapirib bering.

### **EKOLOGIK TANGLIK XAVFI**

XX asr davomida texnikaning rivoji, xalq xo'jaligini va kundalik turmushni kimyolashtirish, yer yuzida aholi sonining keskin ko'payishi oqibatida tabiat bilan inson o'rtasidagi muvozanatning buzilishi, yer suv va havoning inson hayotiga zarali darajada ifloslanishi natijasida paydo bo'ldi.

Hozirgi davrda jahon bo'yicha necha million avtomobil, paroxod, parovoz, lokomobil, samolyot, mototsikl, yaxta, kemacha, turli yoqilg'ida va yonil'ida ishlaydigan elektrostantsiyalar, isitish qurilmalari va hokazolarni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi. Yoqilg'ida va yonil g'ida ishlaydigan har bir mator yoki matorli inshoot, aslida insonga kerakli kislorodni iste'mol qiluvchi raqibdir. Matorlar, bir tomondan, insonga

qulaylik va yengillik tu g'dirsa-da, ikkinchi tomondan, atrof muhitni izidan chiqarib, uni turli kasalliklarga duchor qiladi.

O'zbekistonning milliy mustaqilligi yurtimizdagi ekologik vaziyatni iziga solish uchun jiddiy imkoniyatlar yaratdi. Mamlakatimizda tabiiy atrof muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan muhim tadbirlar amalga oshirilmoqda, mazkur masala rasmiy davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Suv iste'moli O'zbekistonning nihoyatda issiq muhitida va aholiga xizmat ko'rsatish madaniyati takomillashishi bilan, sug'oriladigan yerlar sathi kengayishi sababli, o'n besh barobar oshdi. Ko'z o'ngimizda yuzaga kelayotgan bu nomutanosiblik ekologik ahvolni yanada jiddiylashtirishi mumkin. Bu muammoni hal etishda kundalik ish bilan bir qatorda "EKOSAN" tashkiloti yordamida mintaqada joylashgan besh mustaqil davlatdan ekologiyani yaxshilashning strategik rejasini tuzishni va shu asosda ish olib borishni talab qiladi.

### Lug'at

kimyolashtirish— химизация

keskin — резко

muvozanat — баланс

yoqilg'i— топливо

yonilg'i— горючие

va hokazo— и так дале

iste'mol— потребление

raqib — конкурент

qulaylik— комфорт

atrof-muhit — внешняя среда

vaziyat— ситуация

jiddiy— серьёзно

imkoniyat— возможность

tadbir— мероприятие

xavf — опасность

tanglik — дефицит

inshoot — оружие

nomutanosiblik— дисбаланс

**2-topshiriq.** Matn bo'yicha mutaxassislikka oid so'z va so'z birikmalarini topib gap tuzing va tarjima qiling. Yangi so'zlarni o'zlashtiring.

**3-topshiriq.** So'roqlar yordamida birinchi ustunga payt ravishlarini, ikkinchi ustunga o'rin ravishlarini ko'chiring. Gaplar tuzing va tarjima qiling.

Erta, oldinda, ertaga, ichkari, ichkarida, tashqari, hozir, hozirdan, hali, yuqoriga, avval, ilgari, past, o'rtada, chapda, chapdan, ertalab.

**4-topshiriq.** Nuqtalar o'rniga o'rinli bo'lsa tushum va qaratqich kelishigi qo'shimchalarini qo'shib ko'chiring, morfologik tahlil qiling.

1. Menga kitob... olib keeling. 2. Biz... sinfda 37ta bola o'qiydi. 3. Akam qishloq ... maktabida o'qigan. 4. Men senga qog'oz ... beraman. 5. Qog'oz ... men senga beraman. 6. Bu maktab... o'quvchilari ekskursiyaga boradilar. 7. Qog'oz... fabrikasida 850 ishchi ishlaydi. 8. Kecha bizga yangi jurnal ... olib keldilar. 9. Yangi jurnal... bizga kecha olib kelishdi. 10. Yoz... issiq kunlarida biz ko'lga cho'mildik. 11. Bahor... oylari mart, aprel, may. 12. Qish... sovuq kunlarida men po'stin kiyib yuraman.

**5-topshiriq.** Bog'langan qo'shma gap komponentlarining qanday vositalar bilan bog'langanligini aytib bering, sintaktik tahlil qiling.

1. Muvaffaqiyatlarga erishdik, lekin hali ishimizda kamchiliklar oz emas. 2. Reja bajarildi, ammo hali dalada paxta bor. 3. Bahor keldi-yu, lekin hali gullar ochilgani yo'q. 4. Sen o'z ustingda yaxshi ishlayapsan, biroq hali kamchiliging ko'p. 5. Bugun majlisda yo men gapiraman, yo sen gapirasan. 6. Uning dam jahli chiqar, dam kulgisi qistar edi. 7. Na qulog'iga gap kiradi, na ko'ziga odam ko'rinadi. 8. Kuzda goh kunlar isib ketadi, goh yomg'ir yog'adi.

**6-topshiriq.** Keltirilgan otlarga mos sifatlarni topib yozing.

*Tosh, suv, gul, sochiq,  
Ichak, q o'l, oyoq, mijoz,  
Kasallik, dard, bo'y,  
Deraza, kiyim, sut, daftar,*

*katta, kichik, baland, past,  
novcha, pakana, keng, tor,  
yo'g'on, ingichka, semiz, oriq  
chuqur, sayoz, og'ir, yengil,*

*Globus, yo'l, dengiz, haqiqat,  
Botir, qo'rqoq, sog', kasal,  
Uzoq, yaqin, dumaloq.*

*issiq, sovuq, quruq, ho'l,  
iflos, eski, yangi, o'tkir, o'tmas  
to'g'ri, egri, qimmat, arzon,  
yosh, qari, chiroyli, hunuk*



## 1- topshiriq. Matni o'qing, tarjima qiling va gapirib bering.

### VODOROD

Ingliz olimi Kavendish bir kuni kishiga qizig' tuyiladigan ish bilan mashg'ul bo'ldi. Kavendish temir kukuniga sulfat kislata ta'sir ettirilganda qandaydir gaz pufakchalari hosil bo'lishini kuzatgan. Olim bu gazni idishdan naychalar orqali chiqarib ko'rdi. Gaz ko'zga ko'rinmadi, ya'ni rangsiz edi. Hidi ham yo'q edi. Shunda Kavendish naychalarini sovun ko'pikchalri bilan to'ldirdi. Pufakchalar osonlik bilan havoga ko'tarilib chiqdi. Demak, gaz havodan yengil ekan. Gazni yoqib ko'rilsa nima bo'lar ekan? Gaz zangori tusda alangalanib yondi. Gaz yonganda suv hosil bo'ldi. Kavendish yangi gazni "Yonuvchi havo" deb atadi. U oddiy havo kabi rangsiz, hidsiz bo'lib, ta'mi ham yo'q edi. Bu tekshirishlar 18 -asming ikkinchi yarmida amalga oshirildi. Keyinroq farang kimyogari Lovoaz'e yangi gazni Vodorod "Suvchil" deb atadi.

Vodorod tabiatda juda keng tarqalgan bo'lib, u kosmik fazoda, tumanliklarda, yulduzlarda va quyoshda ham bor. Vodorodning yuksak bosim va o'n millionlarcha harakatda geliyga aylanishi quyoshning issiqlik nuri va yorug'lik tarqatishiga imkon beradi. Vodorod yerda ham juda ko'p. U barcha tirik organizmlarda, o'simliklarda, tog' jinlarida va albatta suvda mavjud.

### Lug'at

alanga – пламя  
bosim – давление  
imkon – возможность  
yoqmoq – сжигать  
tarqalgan – распространённый  
zangori tusda – голубой  
pufakchalar – шарики  
ko'pik – пена

2-topshiriq. Matn yuzasidan savollar tuzib gapirib bering. Mutaxassislikka oid soʻzlarni ajratib, gaplar tuzib tarjima qiling.

3- topshiriq. Mutaxassisligingizga oid atama soʻzlarni topib 10 ta gap tuzing va rus tiliga tarjima qiling.

Boshqa, iqlim, qorshuma, eritma, toʻyingan, modda, natija, suyuq, gazsimon.

4-topshiriq. “Kasbinga muhabbat” mavzusida hikoya tuzing, gapirib bering.

5-topshiriq. Soʻroqlar yordamida aniqlab, holat ravishlarini bir ustunga, daraja- miqdor ravishlarini ikkinchi ustunga yozing.

Koʻp, tez, oz, koʻplab, asta, darrov, bir oz, moʻl, birdan, piyoda, toʻla qattiq, ancha, toʻsatdan, tezdin, doʻstona, botirlarcha, eskicha.

6-topshiriq. Quyidagi gaplarni koʻchirib yozing. Tarjima qiling va koʻmakchilarning maʼnosini aytib bering.

1.Daryoning u betiga koʻprik orqali oʻtdik. 2. Salima men bilan telefonda gaplashdi, 3. Ish bilan ovora boʻlib kunning oʻtganini ham sezmay qolasan kishi. 4. Jahonda dongʻimiz paxta orqali. 5. Guruhimiz talabarlari yozuvchi Asqad Muxtor bilan uchrashdi.



1- topshiriq. Rollar boʻyicha oʻqing va soʻzlab bering.

### “ANATOMIYA ATAMALARI” SARGUZASHTLAR HIKOYASI

Ajoyib va gʻaroyib „Anatomiya hikoyalari” mamlakatiga sayohat qilishni xohlaysizmi? Unda marhamat. Biz sayohatga chiqishimiz uchun, avvalo mitti holga kelishimiz va inson organizmining ichiga yoʻl olishimiz zarur, buning uchun ushbu sheʼriy soʻzlarni aytamiz.

Mitti odamga aylan,

Va sayohatga shaylan.

Ana boʻldi. Endi sayohatimizni boshlasak ham boʻladi. Ogʻiz ochilganda tilning ustiga sakrash kerak.



Bir, ikki, uch,  
Bilimdadir kuch.

O'g'il bola: Voy, bu nima? Xuddi katta g'or-a. Mana bu qizil narsa nima ekan?

Qiz bola: Axir bu til-ku! Labdan tilga sakradik-ku! Ana til o'zi haqida she'r aytayapdi:

Tilman, uzun qisqa tilman,  
So'zlaganda tinim bilmam.

Meni uch mingta bo'rtiq,  
So'rg'ichlarim bezaydi.

Ular ovqat ta'mini,  
Juda yaxshi sezadi.

O'g'il bola: Voy, men qayoqqa chiqib qoldim? Hamma yoq oppoq tog'lar-ku!

Qiz bola: Hech qanday tog'lar emas axir bu tishlar-ku!

Tishlar:

Biz tishlarmiz tishlarmiz,

Ovqat yesak ishlarmiz.

Aytsak, biz juda ham sodda,

Bizda bor to'rtta modda.

Sen ularni sanab boq,

Chuqurchadan chiqqin tezroq.

O'g'il bola: Qaysi moddalar bular edi-ya? Hozir eslayman.

Qiz bola: Emal tishni qoplovchi qattiq modda.

Dentin –tish tanasi undan iborat.

O'g'il bola: Pulpa nervlar, vena, arteriyadan iborat.

Tish: To'g'ri javobingiz uchun tish kovagimdan ozod etildingiz.

O'g'il bola: Til bizni yana qanday quvurga tashlab yubordi ekan!

Bo'ron esib turibdi.

Qiz bola: Menimcha biz tamoqdan bo'g'izga tushdik shekilli, mana bu qizilo'ngach bo'lsa kerak.

O'g'il bola: Buni qayerdan bilding?

Qiz bola: Ana muskul devorlari qisqaryapdi. O'zi haqida so'zlayapdi.

Qizilo'ngach: Qizilo'ngachman qizil,

Mening vazifam qiziq.

Men qisqarib turaman,

Va ovqatni suraman.

Agar xohlasangiz sizni ham surib yuboraman. Ammo surish oldidan sizga bitta topishmoq aytmqchiman, topsangiz mendan so'ng keladigan a'zoni topasiz.

Qani topingchi darrov,  
Bitta bo'g'inim palov.  
Boshqalari –chi har vaqt,  
Sizga pishirar ovqat.

O'g'il bola: nima edi-ya? Bitta bo'g'izi palov pishirsa....

Qiz bola: Boshqalari ovqat pishirdi. Oshpazmi, yo'g'-ey qozon, ha, oshqozon. Voy-vo'!. Bo'tqalar ichida qoldik-ku.

O'g'il bola: To'g'rida oshqozonning asosiy ishi ovqatni hazm qilsh.

Qiz bola: „Devor’’ni ushlasam qo'limga nimadir yopishyapdi.

Oshqozon: Bu mening shiralarim,  
Ovqat hazm qilar bari.

Peptin va xlorid kislota,

Ovqatni maydalovchi modda.

U yog'idir uzun yo'l,

Ichakning turlari mo'l.

Bola va qiz: Yo'q- yo'q ichakka tushmaymiz!

Oshqozon: Unda sizni qon tomirlari orqali hohlagan a'zoingizga o'tkazib yuborishim mumkin. Ahir, sizlar kichrayish hususiyatiga egasiz-ku!

### Lug'at

atama – термин

sarguzasht – приключение

ajoyib, g'aroyib – удивительный

mitti – крохотное

lab – губы

qoplamq – покрыть

bo'g'iz – глотка

qizilo'ngach – гортань

oshpaz – повар

oshqazon – желудок

ichak – кишка

qon tomir – кровенной сосуд

xususiyat – свойство

**2- topshiriq. Matn mazmunini rus tilida soʻzlab bering. Atamalar ishtirokida gaplar tuzib, tarjima qiling. Yangi soʻzlarni yod oling.**

**3-topshiriq. Oʻzbek tiliga tarjima qiling. Soʻz turkumlari boʻyicha tahlil qiling.**

Орган слуха у кузнечиков расположен на передних ногах. Поэтому можно сказать, что кузнечики и их родственники, сверчки, прыгают на ушах.

У дельфинов слуховые окошки “примостились” на нижней челюсти. У раков слуховой аппарат находится на основании коротких усиков. Чуткий слух помогает некоторым хищникам охотиться на бабочек и мух, находить своё гнездо и летать, между линиями электропроводов, не задевая их.

**4-topshiriq. Nuqtalar oʻrniga kerakli sonlarni qoʻyib koʻchiring.**

1. Men kecha doʻkondan (ikkinchi, ikkov, ikkitadan, ikki, ikkitacha, ikkita ) non sotib oldim. 2. Akam (bir, birinchi, bitta, bittadan, bittacha) bosqich talabasi. 3. Oʻqituvchi oʻz oʻquvchilariga (oʻnov, oʻn, oʻninchi, oʻnta, oʻntacha) kitob berdi. 4. ...(toʻqqiz, toʻqqizta, toʻqqizinchi, toʻqqiztadan, toʻqqiztacha) sinf oʻquvchilari musobaqada...(olti, oltita, oltinchi, oltitacha) ochko olishdi. 5. Ular...( beshta, beshinchi, beshov, beshtacha, beshtadan) shaxmat toʻgaragiga qatnashadi. 6. Dugonam Yelena ...(yigirma birinchi, yigirma bitta, yigirma bittacha, yigirma bittadan, yigirma bir) kvartalda...( toʻrt, toʻrtov, toʻrtta, toʻrttacha, toʻrtinchi, toʻrtidan bir) uyda yashaydi.

**5-topshiriq. Quyidagi gaplardagi feʼlning noaniq shaklini kerakli zamonda qoʻyib koʻchiring va taʼrif bering.**

1. Musobaqada Alyosha va Erkin alohida chaqqonlik (koʻrsatmoq). 2. Yakshanba kuni universitetimizda atoqli yozuvchilar bilan uchrashuv (boʻlmoq). 3. Urush paytida Toshkentda turli shaharlardan keltirilgan bolalar (yashamoq). 4. Akam 1986-90-yillarda konservatoriyada (oʻqimoq). 5. Dam olish kuni biz kinoga (bormoq). 6. Universitetimizning hovlisida har xil gullar ochilib (turmoq). 7. Topshirigʻimizni biz ertaga (topshirmoq).

**1- topshiriq. Matni o'qing, Savollar tuzing va gapirib bering.**

**YOSTIQ DARAXTI**

Tropik mamlakatlarda o'sadigan salobatli, sershox bu daraxt Seyba daraxtidir. U yer yuzidagi boshqa birorta daraxtga o'xshamaydi. Uning bo'yi 45 metr, tanasining aylanasi 12 mertga etadi. O'simlikning tanasi, shoxlari tikanli va tikansiz bo'ladi. Uni Amerikada, Afrikaning tropik qismida yoki Yava orollarida ko'rganingizda mana shunday ajoyib manzaraning guvohi bo'lasiz. Seyba daraxtining gullari mayda, oqish bo'ladi. Ko'pincha uning gullash davri yanvar, fevral oylariga to'g'ri keladi. U bir yil gullab, ikkinchi yil gullamasligi mumkin. Qizig'i shundaki, daraxt gullagan paytida barglari to'kilgan bo'lib, ba'zan mevalari o'simlik barg yozgunicha pishib etiladi.

Seyba daraxtiga xos xususiyatlaridan yana biri shundan iboratki, ularning hamma tuplari birdaniga barg to'kmaydi va gullamaydi. Shuning uchun bir vaqtning o'zida ham bargsiz ham barglarga burkangan holda turgan daraxtlarni ko'rish mumkin. Bundan tashqari bir tup daraxtdagi hamma shoxlar ham birdaniga barg to'kmasligi va gullamasligi mumkin.

Odatda Seyba gullamaydigan yillari dekabr oyining oxirlarida barg yozadi. Yarmi gullagan, yarmi esa barg yozib turgan daraxtni ko'rib taajjublanmay bo'lmaydi albatta. Seyba daraxtining barglari ba'zan juda barvaqt, to'to iyulning oxirlariga borib ham to'kilib ketishi mumkin. Mevasi ko'sak, 10 sm kattalikda, ichi shoyiga o'xshash paxta bilan to'lganga o'xshaydi. Uning oralarida mayda jigarang urug'lar joylashgan. Seyba paxtasidan yostiqlar qilinadi. Seyba kattaligi va shakli bilan ham bir biridan farq qiladi. Ba'zi birlari pishganidan so'ng yorilib yerga parga o'xshash tolali shoyi paxtalami tashlaydi. Ba'zi bir Seyba daraxtlarining mevalari pishganidan keyin to'kilmaydi. Seybalar salobatli va quyuc soya berganliklari uchun ko'plab ekiladi. Ularning mevalaridan, ayniqsa urug'laridan olinadigan moylar sovungarlikda ishlatiladi. Uning och pushti yoki kulrang yog'ochi juda mo't bo'ladi.

**Lug'at**

- yostiқ – подушка
- salobatli – величественный
- sershoh – ветвистый
- tikan – шпы
- guvoh – свидетель
- barg – литься

xususiyat– свойство  
iborat– состоит  
burkanmoq– окутаться  
taajjublanmoq– удивляться  
shoyi– шёлк  
jigarrang– коричневый  
urugʻ– семя  
sovungarlik – мылопроизводство  
kulrang– серый  
moʻrt– хрупкий

**2-topshiriq. Matnni lugʻat yordamida tarjima qiling, tushunganingizni soʻzlab bering. Yangi soʻzlar ishtirokida gaplar tuzib tarjima qiling.**

**3-topshiriq. Nuqtalar oʻrniga kerakli unlilarni qoʻyib koʻchiring, morfologik tahlil qiling.**

1. Agar b...gʻimlar b...lmaganda edi, harakat boʻlmasdi. 2. B...shimiz oyogʻimiz, q...llarimizni h...rakatga keltira ...lmas edik. 3. H...tto bitta b...rmoqni ham qimirlata olm...s edik. B...gʻimlar t...fayli q...lay h...rakat qil...sh imkon...yatiga egamiz.

**4-topshiriq. Gaplardan antonimlarni toping va rus tiliga tarjima qiling.**

1. Kattalar gapirganda kichiklar jimgina quloq solishlari kerak. 2. Kam gapir, koʻp tingla. 3. Mashgʻulotda ogʻir boʻlsa, jangda yengil boʻladi. 4. Yaxshi bola nom keltirar, yomon bola gʻam keltirar. 5. Egri boʻlsang sinar qanoting, toʻgʻri boʻlsang chiqadi noming. 6. Yolgʻon uyaltirar, rost suyuntirar.

**5-topshiriq. Nuqtalar oʻrniga kerakli sonlarni qoʻyib koʻchiring va tarjima qiling.**

1. ....(oʻnta, oʻntacha, oʻn, oʻninchi, oʻnov, oʻnlab) sinfni bu yil oʻttiz besh bola bitirdi. 2. Bu yil qishda faqat...(ikkinchi, Ikki, ikkitadan, ikkov, ikkitacha) marta qor yogʻdi. 3. Har birimiz ( uch, uchinchi, uchtadan, uchov, uchala, uchta) savol yozib oldik. 4. Bularning ...(beshta,

besh, beshinchi, beshov, beshtacha) bugun Moskvaga simpoziyungga jo'nab ketyapdi. 5. Dekan ... ( yetti, yettov, yettinchi, yettitadan, yettitacha) studentni olib, institutning tajriba xonasiga ketdi. 6. Menning akam endigina... ( yigirma beshinchi, yigirma beshta, yigirma besh, yigirma beshga,) yoshga kirgan bo'lsa ham, fan kondidati. 7. Bu yil paxta terimiga bizning oilamizdan .... (to'rtta, to'rt, to'rtinchi, to'rttacha ) kishi yordam beryapdi. 8. Mening sinfimda... (o'ttiz uch, o'ttiz uchinchi, o'ttiz uchta, o'ttiz uchtadan, o'ttiz uchtacha ) o'quvchi bor.

**6-topshiriq. Quyidagi gaplarning egasini toping, eganing qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligini ayting.**

1. Derazamning oldida bir tup, o'rik oppoq bo'lib gulladi. (H.Olimjon).
2. Sen o'zingni maqtama, seni birov maqtasin.
3. Majlisga bir kishi keladi.
4. Uchalasi ham bir joyga ketdi.
5. O'qish bu ulkan zafarlar quchishdir.
6. Hech kim uning kasallik sababini bilmas edi.
7. Yigit kampirning donoligiga qoyil qolib ofarinlar aytdi.
8. Men oq sochlarimni qora zulmatga alishmayman.
9. Uchinchi masofani bir zumda bosib o'tdi.
10. Yaxshilar ko'paysin, yomonlar kamaysin.



**1- topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.**

### КАК МЫ ДЫШИМ И ВИДЕМ

Процесс дыхания состоит из двух движений - из вдоха и выдоха. Во время вдоха воздух входит в лёгкие, а во время выдоха - выходит из них.

При вдохе сокращается диафрагма - мышца, которая отделяет грудную клетку от брюшной полости, одновременно сокращаются мышцы, прикреплённые к рёбрам, заставляя ребра раздвигаться, и грудная клетка увеличивается в размерах. При этом лёгкие расширяются и в них попадает, атмосферный воздух, насыщенный кислородом. Воздух попадает в альвеолы - легочные пузырьки, через которые кислород пронекает в кровь.

После этого диафрагма и мышцы грудной клетки автоматически расслабляются, лёгкие сжимаются, и из них выходит воздух, в

котором вместо кислорода содержится углекислый газ, а так же водяной пар.

Обычно за одну минуту человек совершает от 20 до 25 вдохов и выдохов.

Орган зрения, играет важную роль в жизни человека, в его общении с внешней средой. В процессе эволюции он прошёл путь от светочувствительных клеток на поверхности тела животного до сложноустроенного органа, способного осуществлять движения в направлении пучка света и посылать этот пучок на специальное светочувствительные клетки, лежащие в толще задней стенки глазного яблока, воспринимающие как черно-белое, так и цветное изображение.

Достигнув совершенства, орган зрения у человека улавливает картины внешнего мира, трансформирует световое раздражение в нервный импульс, высший анализ которого осуществляется в коре большого мозга.

### Lug'at

- процесс — jarayon
- движение — harakat
- вдох — nafas olmoq
- выдох — nafas chiqarmoq
- сокращаться — qisqarmoq
- мышца — mushak
- грудная клетка — ko'krak qafasi
- насыщенный — to'yingan
- пузырьки — puffakchalar
- проникать — singimoq
- сжиматься — siqilmoq
- внешняя среда — atrof muhit
- светочувствительность — yorug'likka sezuvchanlik
- клетка — hujayra
- поверхность — yuza
- сложноустроенность — murakkab tuzilma
- глазное яблоко — ko'z soqqasi
- воспринимать — qabul qilmoq
- изображение — tasvir
- кора мозга — miyuva qobig'i

**2-topshiriq. Yangi so'z va atamalar ishtiriokida gaplar tuzing.**

**3-topshiriq. She'r misralari oxiridagi so'zlarni joy-joyiga qo'yib chiqing.**

Qon hosil qilar quloq,  
O'sib ketibdi taloq.  
Kuchga to'ladir yurak,  
Gupillab urar bilak.  
O't qopida bo'lar yosh,  
Ko'zingdan ko'rindi bosh.

Qaldirg'ochdek qalam tosh,  
Omon bo'lsin bizning qosh.  
Kuchga to'ladir barmoq  
Tinglash a'zosi tirnoq.  
Qayer og'riq shu yer son  
Ikki oyoq ikki jon.

**4-topshiriq. Tarjima va so'z turkumlari bo'yicha tahlil qiling.**

Odam tanasidagi barcha qon yurak orqali o'tadi, bu taxminan 5 litrni tashkil qiladi. Yurak bu miqdorni sal kam 1 daqiqa vaqt ichida haydaydi ana shu yo'sinda 1 soatda 400 litrga yaqin, 1 sutkada 10000 litrdan iborat bo'ladi. Bir yil davomida tomirlar orqali harakatlantiradigan qoni-3.5 million litrga to'g'ri keladi.

**5-topshiriq. Gaplarni ko'chirib o'zbek tiliga tarjima qiling, olmoshlarga ta'rif berib, morfologik tahlil qiling.**

1. Где проживает ваша семья? 2. Как вы добираетесь до университета? 3. Сколько в этом семестре у вас предметов? 4. Как вчера прошли семинарские занятия? 5. С кем вы беседовали на лестнице? 6. Чем это вы так удивлены?

**6-topshiriq. Tarjima qiling. Otlarda kelishiklarga ta'rif bering.**

1. Мои товарищи поедут на экскурсию. 2. Я знаю твоих товарищей. 3. Я храню письмо моих товарищей. 4. Я пишу письма моим товарищам. 5. Я получаю письмо от ваших товарищей. 6. Мы видели его товарищей.



**1-topshiriq. Matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.**



## QORA DENGIZ SIRLARI

Tadqiqotchilar Qora dengizni ko'p marta tekshirishgan va har safar yangidan yangi ma'lumotlarga ega bo'lishgan. Masalan, Qora dengizning tubida haqiqiy xazina bor degan mish - mishlarga deyarli javob topishgan. Darhaqiqat, dengiz tubidan 500 ga yaqin kema, samolyot, vertolyot va bir qancha suvosti kemalari topilgan. Yana shunisi qiziqki, suv ostida oltingugurt bo'lgani bois u yerda na bir chuvalchang, baliq yoki na bir mikrobnig o'zi yo'q. Shuning uchun dengiz tubida kema qoldiqlari va odam suyaklari bus-butunligicha saqlanib qolgan.

Olimlar Qora dengizdagi oltingugurtni qanday to'planishi-yu qanday tarqalishining sababini hanuzgacha aniqlolmaydilar. 1927-yildagi zilzila oqibatida Qora dengizni yongani olimlarni hanuzgacha hayratga soladi.

Qrim hududida yer silkinishi 70-100 yilda bir marotaba ro'y berar ekan.

Ayrim olimlarning fikricha, suv yong'iniga nafaqat zilzila yoki tektonik harakat, balki Qora dengiz atrofidagi mamlakatlardan dengizga har yili 100 ming tonnaga yaqin organik va noorganik moddalarning tashlab yuborilishi sabab bo'lishi mumkin.

Kasallikni davolagandan ko'ra, oldini olish ma'qul, deganlaridek, olimlar ayni paytda asosiy e'tiborni ana shu omilga qaratishmoqda.

### Lug'at

tadqiqot – исследование

tub – дно

xazina – клад

mish-mish – слухи

darhaqiqat – на самом деле

oltingugurt – сероводород

chuvalchang – дождевой червь

qoldiqlar – остатки

bus-butun – целый

oqibatda – в следствии

chinakamiga – и в правду

hanuzgacha – до сих пор

hayrat – удивление

hudud – территория

zilzila – землетрясение

**2-topshiriq.** Matnga savollarni shaklida reja tuzing. Yangi soʻzlar ishtirokida gaplar tuzib tarjima qiling. Matnda uchragan kasbga oid atamalarini yod oling.

**3-topshiriq.** Quyidagi soʻzlarga qoʻshimchalar qoʻshilganda qanday oʻzgarishlar boʻlganini tahlil qiling, gap tuzing, rus tiliga tarjima qiling.

Saylov, oquv, sinov, ayov, soʻroq, sovuq, boʻyoq, oʻynoqi, sayroqi, oʻrni, oʻgʻlim, yarmi, oʻshirib, meni, boʻynim, shunisi, sening.

**4-topshiriq.** Nuqtalar oʻrniga kerakli egalik va kelishik qoʻshimchalarini qoʻyib, koʻchirib, morfologik tahlil qiling.

1. Bu gaplar....daftar...yozib oling. 2. Valya bu matn...oʻzbek tili...rus tili...tarjima qila olmadi. 3. Navbatchi har dars... doska..., stol va stullar... artib turishi kerak. 4. Davlat kutubxona...har kun...soat oʻn.... ochiladi. 5. Men nazorat ishlar... oʻz vaqti... dekanat...topshirdim. 6. Ular biz... guruh... bilan Chimyo... oʻtgan yil... chiqqan edi. 7. Tarix fakultet... 2-kurs talabalar... erta... Amir Temur muzey... bormoqchi. 8. Aka ... Aziz armiya saf... xizmat qilguncha, qishlo hoʻjalik institut... bitirgan edi. 9. Erta ... uchinchi para... keyin Navoiy muzey... bormoqchimiz.

**5-topshiriq.** Nuqtalar oʻrniga tegishli olmoshlarni qoʻyib, qavs ichida qaysi turini koʻrsating sintaktik tahlil qiling.

1. ....dala hovlimizda bir hafta ishladim. 2. .... vatanimizni boʻstonga aylantirmoqchimiz. 3. .... kolleжда ishlayapdi. 4. ... oilamiz bilan yangi katta uyga koʻchib oʻtdik. 5. .... hali ham Toshkent viloyatida yashaydi. 6. ....Qisqacha tarjimai holingizni aytib bering. 7..... yozgan nazorat ishlarimning hammasi yaxshi baholandi. 8. .... oʻbek tili kitobingizni .... Raisaga ikki kunga berdim. 9. .... Toshkent viloyatining Chirchiq shahrida turadi. 10. Kechagi voqeani menga soʻzlab berdi.

**6-topshiriq.** Gapnlarni koʻchirib, feʼl zamonlarni aniqlang, sintaktik tahlil qiling.

1. Moskvaga borganingizda davlat universitetini borib ko'ring. 2. Ular ertaga ma'ruzadan keyin konsertga bormoqchimiz. 3. Bizning qurolli kuchlarimiz ilg'or texnika bilan qurollangan. 4. Mamlakatimizda o'qish va bilimlarni egallash uchun hamma imkoniyatlar bor. 5. Har yakshanba kuni men institutga borib turibman, u yerda konsultatsiya bo'lib turibdi. 6. Jamilaning ota-onasi o'zbek tilini mustaqil o'rganmoda. 7. Biz dam olish kuni ekskursiyaga bormaymiz. 8. Men ertaga dam olish kuni kechgacha kutubxonada ishlab o'tirmoqchiman.



### 1-topshiriq. Matni o'qib, mazmunini so'zlab bering

#### BAYROG'IMIZ - FAXRIMIZ, G'URURIMIZ

Dunyoda shunday jinoyat borki, uni qech qachon, qech narsa bilan oqlab bo'lmaydi. Bu – Vatanga xiyonatdir. qanday odamlardan xiyonat chiqadi? Albatta ko'nglida, o'z yurtining bayroqi yo'q kimsalardan. Bayroqqa xiyonat insonning o'zligiga, tomirida oqayotgan qoniga, ajdodlar ruhiga hiyonatdir.

Aslida bayroqsiz qalb bo'lmaydi. Bayroqsiz qalbg'a o'zgalari o'z bayroqini tikishga harakat qiladilar. Ota suratini qanday e'zozlaymiz? Ona tasvirini? Qani birortasi ota - onamiz suratini yirtsin, behurmat qilsinchi? Vatan timsoli, ozodlik ramzlariga biz uchun shu qadar muqaddas deb qarashimiz kerak. O'ylab ko'ring, nima uchun bayroq doimo baland turadi. Bosh uzra hilpiraydi. Negaki, u poyida millionlarni birlashtiradi. U insonga kuch va qudrat baxsh etadi. Og'ir jang holatlarida u yiqilganni turg'azadi, qo'rquvni jasoratga, zaifni matonatli insonga aylantira oladi. O'z navbatida g'urur bilan bayroqni ko'targan inson minglab qalblarga bayroq tika oladi. Qalbning bayrog'i - milliy g'ururdir. Jangu - jadallarda bayroqning qulashi yoki g'anim qo'lga o'tishi mag'lubiyat bilan barobar turgan. Shu sababli jangu - jadallarda davlat bayroqini eng ishonchli bahodirlar, pahlavonlar qo'riqlashgan.

Bayroq oldida qasamyod, bayroq oldida tiz cho'kib uni o'pmoq bu Vatanga e'zoz, tug' - bayroqni asrashga millat, xalq, davlatning or - nomusini asrash qadar yuksaklikdir.

#### Lug'at

faxr, g'urur  
xiyonat  
kimsa

гордость  
предательство  
лицо

ajdod	предки
ruh	дух
g'anim	враг, недруг
e'zozlamog	ценить, беречь
behurmat qilmoq	оскорблять
timsol, ramz	символ
hilpiramoq	веять
poyida	у подножие
kuch, qudrat	сила
jasorat	доблесть, храбрость
mag'lubiyat	поражение
jangu - jadal	бой, битва
bahodir, pahlavon	боготырь
qo'riqlamoq	стеречь
or - nomus	честь
qasamyod	клятва

**1- topshiriq.** Lug'atda berilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing. Matnga savollar tuzib, ularga javob tayyorlang.

**2-topshiriq.** Quyidagi so'z birikmalari ishtirokida hikoya tuzing va tarjima qiling.

Jismoniy tarbiya, sog'liq garovi, kuch-qudrat, sog'lom tan, baquvvat mushak, tana tuzilishi, tetik ruh, badantarbiya, sog'-salomat.

**3-topshiriq.** Nuqtalar o'rniga kerakli olmoshlarni qo'yib ko'chiring, qavs ichida olmoshlarga ta'rif bering.

1. ... bu yili harbiy xizmatga chaqirildim. 2. ... yerda ko'p do'stlar orttirdim. 3. Vatanni himoya qilish .... burchimizdir. 4. Harbiy xizmatni ... qayerda o'tagansiz? 5. ... harbiy xizmat davridagi xotiralariniz qanday? 6. Xizmat davrida ... juda ko'p yangiliklardan xabardor bo'ldim. 7. ... bilimimga bilim qo'shildi. 8. ... yurt ximoyachisi ekanligimdan xursandman 9. Fikrimga .... qo'shilasizmi?

**4-topshiriq.** Rus tiliga tarjima qiling, sonlarning turini aniqlang.

1. Bemorga uch mahal dori berib turasiz. 2. Atigi bir dona gul uzdim. 3. Uyimizda to'rt bosh qora mol bor. 4. qo'lida bir dasta gul bor edi. 5. Yaraqlagan bir juft kalishni menga uzatdi. 6. U bir zumda tayyor bo'ldi.

**5-topshiriq. Mutaxassisligingizga oid atamalar qatnashgan gap tuzing va rus tiliga tarjima qiling.**



### 1 -topshiriq. Matni o'qing va so'zlab bering

#### QASAMYODGA SODIQ BO'L, O'G'LON!

Qasamyod maqaddas. Unga amal qilish, ahdiga sodiq qolish sharafli burchdir. Buni anglagan, tushunib yetgan har bir o'g'lonning ko'zida bu kun shijoat, o'ziga ishonch tuyg'usi chaqnab turadi. Birin - ketin yurt o'g'lonlari Vataniga, xalqiga, yurtboshiga sodiq bo'lish uchun qasamyod qabul qila boshlayli. Onalarning ko'zidagi sevinch yoshlari, otalar chehrasidagi yorqin tabassum tadbirga fayz bergandek, shukuh baqishlaganek...

Bundan buyon zimmaga g'oyat ma'suliyatli vazifalar yuklatiladi. Bunday sharafli vazifalarni a'lo darajada bajarish uchun esa o'tkir zehn, izlanish, nazariy va amaliy bilimlarni egallash, tartib intizomga rioya etish talab qilinadi. Kelajakda fidokorona hizmat bilan xalqimiz ishonchini hamda qabul qilgan qasamyodlarini oqlashlariga ishonch bildiriladi.

Ularning eng ulug', eng aziz ayyom kuni qasamyod qabul qilishlarida ulkan ramziy ma'no bor. Bu Vatan hurriyati buyuk baht ekanligi, tinchlik va osoyishtalik eng oliy ne'matligi hamda bularni asrashga mas'ul ekanliklariga ishoradir. Yurtga bo'lgan mehru - muhabbatini, sadoqatini qasamyodda bitilgan so'zlar bilan uyg'un tarzda izhor etishga, ona Vatan sha'hini yuksaklarga ko'tarishga tayyor ekanligi, Vataniga, xalqiga, Prezidentiga sodiq bo'lishga qasamyotdir.

#### Lug'at

qasamyod  
sodiq  
burch  
shijoat  
sharaf  
mas'uliyat

присяга  
верный  
долг  
доблесть  
слава  
ответственность

tartib-intizom  
ramziy  
sadoqat  
ishor etmoq  
yuksaklik

ДИСЦИПЛИНА  
СИМВОЛИЧНЫЙ  
преданность  
излагать  
ВОЗВЫЩЕННОСТЬ

**2-topshiriq. Lug'atdagi yangi so'zlar yordamida matni rus tiliga tarjima qiling va matnga savollar tuzing.**

**3-topshiriq. So'zlarning o'zak va qo'shimchalarga ajratib ko'rsating va gap tuzing.**

Hizmatchilarga, berildi, mehnatkashlardan, gulzorimizda, tayyorlandilar, bolalikda, so'zlamadik, maktablarimizdagi, ishchilarimiz, ularnikiga, qishlog'imizning.

**3-topshiriq. Gaplarni ko'chiring va ketma-ket tarjimasini yozib boring, sintaktik tahlil iling.**

1. Брат прислал мне письмо, а телеграмму не прислал. 2. Декан ушёл не на факультет, а прямо в ректорат. 3. Жители Республики Узбекистан с восторгом приняли известие о независимости. 4. Нужно каждый день читать газету. 5. К докладчику вопросов не имеется. 6. Скоро наступит праздник независимости. 7. У отца есть большая библиотека. 8. Мы любим свой народ и свою Родину.

**4-topshiriq. Quyidagi sonlarni o'qib, so'zlar bilan yozib chiqing va gaplar tuzing.**

9,56; 4,18; 6/9; 7/10; 0,68; 38,7; 987,65; 5432; 197; 10,20; 12,30; 15,45;

**5-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.**

1. O'quvchi yaxshi o'qiydi. 2. Yaxshi o'quvchi ko'p o'qiydi. 3. Chuqur ariqda cho'milma. 4. Men adabiyotni chuqur o'rganaman. 5. Akam

chiroyli kastyum oldi. 6. U chiroyli yozadi. 7. Qattiq yerni kovlash oson emas. 8. Sen kecha qattiq gapirding.



**1-topshiriq. Matni o'qing, tarjima qiling, tushunganingizni gapirib bering.**

## **KURASH**

Juda qadimiy o'yin - odatlarimizdan biri kurashdir. Bu o'yin - odat haqida siz yaxshi tasavvurga egasiz. Chunki kurash odatimiz, hayriyatki, yo'qolib izsiz ketgan udumlarimiz qatoriga kirmay qolgan. Buning sababi, obrazli qilib aytganda, har bir zamon, ayniqsa, bizning zamonamizda kundalik turmush, hayot kechirishning o'zi kurashdan iborat bo'lib qolganligi tufayli shunday bo'lgandir...

Kurash qadimiy va erkin kurash turlariga bo'linadi. Bu odatning tarixi bir qadar uzundur. Kurash bizning xalqimiz orasida paydo bo'lib taraqqiyot yo'liga kirgandan buyon tarkib topib, rivojlanib, takomillashib bordi. Milliy kurashni biz hozirgi kunda sport turi sifatida qayd etamiz. Aslida esa, bu odat xalq hayotining juda muhim tarmog'i bo'lib, uning taqdiri - a'amolini belgilagan.

Qadimda yalpi qirg'in, o'lim qurollari bo'lmagan paytlarda, pahlavonlari u yoki bu xalq, qo'shin, katta lashkar g'alabasini, bu bilan esa shu podsholikning taqdirini hal qilganlar. Polvonlik bitta - ikkita shaxs misolida emas, balki umumxalq siyosida ommalashgan. Yaxshi chavondozlik, kamondan behato o'q otish, chaptastlik bilan qilich chopish, epchillik, jasurlik, tantilik va mardlik, xalollik kurashchilarning bosh fazilatlarini sanalgan.

### **Lug'at**

qadimiy—старинный

o'yin—игра

odat—привычка, обряд

tasavvur—представление

izsiz—безследно

taraqqiyot—развитие

tarkib—состав

qurol—оружие

siymo—символ

behato—безошибочно

qilich chopish – фехтовать

**1-topshiriq.** Matn yuzasidan savollar tuzib gapirib bering, tarjima qilib mutaxassislikka oid soʻz va atamalarni ajratib gap tuzib tarjima qiling.

**2-topshiriq.** Quyidagi biriktiruvchi bogʻlovchilari ishtirokidagi gaplarni oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. Ночь была тёмная и тёплая. 2. Ладно, Азиза, тогда мы встретимся в библиотеке. 3. В нашей группе и Акмаль вступает в ряды отличников. 4. Дилбар и его брат Сабир тоже учатся в нашем институте. 5. Камила, Рахима, а также Салима вместе готовили уроки. 6. Все пришли, а Малика не пришла.

**3-topshiriq.** Nuqtalar oʻrniga tegishli olmoshlarni qoʻyib, taʼrif bering.

1. ...bu yil uchinchi bosqichni bitirib toʻrtinchi bosqichga oʻtaman. 2. ... bu kitobni kutubxonaga topshirdim. 3. ... amakisi Samarqand shahrida yashaydi. 4. ... oʻrta maktabni ... bilan birga bitirgan. 5. Kecha ... Salimanning dugonasini koʻrdim. 6. ... meni kechaga taklif etdi.

**4-topshiriq.** Rus tiliga tarjima qiling.

Bunga javob bering. Oʻshandan soʻrang. Shuni oʻqing. Men soat uchda kelaman, shunda soʻzlashamz. Undan xat oldim. Bu kitob yaxshi, bunda qiziq hikoyalar bor. Shunga qarab tur. Unga xat yozdingmi? Bundan ikki kun ilgari majlis boʻldi. Ertalab keldim, shundan beri seni izlayman. Daftaringiz undami? Oʻshanga aytdim. Oʻshandan manzilingni bildim.

**5-topshiriq.** Nuqtalar oʻrniga kerakli egalik qoʻshimchalarini qoʻyib koʻchiring va tarjima qiling.

1. Shohimardon Oʻzbekistonning goʻzal vodiy ... dan biridir. 2. U yerda daraxtlar, chiroyli gullar bahri dil ... ni ochadi. 3. Biz ota ..., ona ..., singil .. bilan birga dam olishga bordik. 4. U yerda dam olish uylar ..., bolalar ormgohlar ..., sayyohlar baza ... va shifoxona bor. 5. Biz oila ... bilan shu dam olish uy ... ga joylashdik. 6. Ona ..., singil ... diqqatga sazovor yerlarni sayr qilishdi.



## 1 -topshiriq. Matnni o'qing va gapirib bering.

### O'ZBEKISTON - VATANIM MENING

Biz yashayotgan go'zal yurt O'zbekiston Respublikasidir. Bu yurtni qadimda o'z xalqi turon, arablar Movarounnaxr, keyinroq Turkiston va O'rta Osiyo deb kelishgan. U O'rta Osiyoning markaziy va shimoliy qismiga joylashgan. Maydoni 447,4ming kv.km., aholisi 25mingdan ortiq, uning 70%ni o'zbeklar tashkil qiladi. O'zbekiston asosan Sirdaryo bilan Amudaryo oralig'ida joylashgan.

Respublikamizning serquyosh issiq iqlimi shirin - shakar mevalar, poliz ekinlari, paxta, kanop singari texnik ekinlar etishtirish imkonini beradi.

O'zbekistonning mehnatsevar iste'dodli xalqi respublikamizning chinakam boyligidir. Yurtimiz yer osti konlari, qimmatbaho hamda nodir metallar va minerallarga boy.

Respublikamiz oltin, kumush, rux, volfram kabi qimmatli metallar bo'yicha dunyoda etakchi o'rinlardan birini egallaydi.

O'zbekiston ma'muriy jihatdan 12 ta viloyat va bitta respublikadan iborat. Respublikamizda yuzga yaqin obod shaharlar, to'qson etti ta shaharcha, bir yuz qirq sakkiz ta qishloq tuman bor. Shahar va qishloqlarimiz kundan - kun obod va ko'rkam bo'lib bormoqda. Yangi - yangi mehmonxonalar, ko'priklar, turar uy joylari, istirohat bog'lari, dam olish maskanlari qurilmoqda.

Hozirgi kunda yurtimiz O'rta Osiyoning eng katta sanoat, yirik ilm - fan va yuksak madaniyat markazidir. Biz o'z Vatanimizni sevarimiz va u bilan faxirlanamiz.

#### Lug'at

aholi - население

yetishtirmoq - выращивать

joylashgan - расположен

oraliq - промежуток, середина

mehnatsevar - трудолюбивый

iste'dodli - талантливый, одарённый

sanoat - промышленность

madaniyat - культура

faxr - гордость

markaziy - центральный

imkoniyat - возможность

siyosat– политика  
sifatida– в качестве  
e'lon qilmoq – объявить  
poliz ekinlari – бахчевые культуры  
kanop– лён  
nodir– редкий  
yirik – крупный  
egallamoq – занимать

**1-topshiriq. Matn mazmunini gapirib bering. Savollar tuzing. Yangi so'zlar ishtirokida gaplar tuzib tarjima qiling.**

**2-topshiriq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilib yozing. Fe'lning zamon formasi qoshimchalarini aytib bering.**

1. Летом мы работали в Мангышлаке. 2. В университет поступили учиться девушки из Кубы. 3. В Ташкенте построили большое, красивое здание цирка. 4. Ташкент стал городом дружбы и братства. 5. Я повторил слова, прочитал текст и выучил правила. 6. В саду мы собирали яблоки груши и персики.

**3-topshiriq. So'roqlar yordamida birinchi ustunga payt ravishlarini ikkinchi ustunga o'rin ravishlarini ko'chiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.**

Erta, oldinda, ertaga, ichkari, ichkarida, tashqari, hozir, hozirdan, hali, yuqoriga, avval, ilgari, past, o'rtada, chapda, chapdan, ertalab.

**4-topshiriq. Ko'chiring, qavs ichida fe'lning zamonini ko'rsating, morfologik taxlil qiling.**

1. Men deyarli har kuni tushdan keyin kutubxonada bo'laman. 2. Avval biz Toshkentda mustaqillik maydoni yaqinida yashar edik. 3. Ular yozuvchi Oybekning "Navoiy" ramanini o'zbek tilida o'qishmoqchi ekan. 4. Irina boshqa shahardan kelganligi uchun o'zbek tilini yaxshi bilmas edi. 5. Bu yil ham bizning guruhimizning talabalari imtixonlarga katta tayyorgarlik ko'ryaptilar. 6. Shu kunlarda Toshkentda chet eldan kelgan ko'plab mehmonlar sayr qilib yurishibdi.

**5-topshiriq. Mutaxassisligingizga oid atama so'zlarni topib 10 ta gap tuzing va rus tiliga tarjima qiling.**



**1-topshiriq. O'qing va tarjima qiling.**

### **BU QIZIQ**

Buyuk matematik Amper ko'chada qiziqarli misolni yechishni o'ylab borar edi. Birdan u taxta doskaga ko'zi tushib cho'ntagidan oppoq bo'rni olib misolni yecha boshladi. Taxta doska esa sekin qo'zg'ala boshladi. Amper yozishni davom ettirdi. Atrofdagilarning guldiros kulgusi fikrini bo'ldi. Qarasa yozayotgan doskasi izvoshning orqasi ekan.

### **AFSUS...**

Radio to'lqinlarini ixtiro qilgan Genrix Gerts maktabda o'qib yurganida tokarlik ishiga ayniqsa qiziqar ekan. Bir necha yil o'tgach muallim uning taqdiri haqida so'raganda, do'stlari;

- Ey, u mashhur fizik bo'lib ketgan deyishibdi.
- Afsus, ajoyib tokar bo'lishi mumkin edi,- degan ekan muallim.

### **HOTIRA KUCHI**

Albert Eynishteyndan bir tanish ayol kechqurun qo'ng'iroq qilishni so'rabdi.

- Raqamim 24 361, buni yodda saqlash qiyin, shuning uchun yozib olsangiz bo'larmidi?

- O, yo'q,- e'tiroz bildiribdi fizik. O'n ikkining ikkiga ko'paytmasi, o'n to'qqizning kvadrati -aksincha, juda ham oson.



Однажды Алберт Эйнштейн, глубоко задумавшись шел по улице. Он встретил своего друга и приветливо сказал ему.

- Приходите завтра вечером ко мне. У меня будет профессор Стивенсон.

Друг удевлненно воскликнул.

- Но ведь я Стивенсон.

- Это не имеет значения, сказал Эйнштейн, - все равно приходите.

### Lug'at

afsus	-	жаль
ixtiro	-	изобретение
taqdir	-	судьба
mashxur	-	знаменитый
hotira	-	память
e'tiroz	-	возражение
aksincha	-	напротив
великий	-	buyuk
внезапно	-	birdan
карман	-	cho'ntak
тронуться	-	qo'zg'almoq
какета	-	izvosh

### 2-topshiriq. Nuqtalar o'rniga kerakli egalik va kelishik qo'shimchalarni qo'yib chiqing.

1. Siz kechagi matn... mazmun.. so'zlab ber... . 2. Hozircha siz shu kitob... foydalanib tur... . 3. Kichik singil... kichik- kichik hikoya kitobchalar... sotib ol... . 4. Dam olish kun... qishloq... borib kelmoqchi... . 5. Men har doim o'z ota- onam ... yordam berib tura... . 6. Institut... kelgan mehmon... erta... Samarqand... shahri.. olib bora... . 7. Men bu maqola... avtor... shu zal... taklif qildim. 8. Uka... o'rta maktab... oltin medal bilan bitirgan. 9. Kursdosh... Vadim.. oila... Navoiy ko'cha... birinchi uy... oltinchi kvartira... yashaydi. 10. Maktab tajriba uchastka... ochilib turgan qizil, oq, pushti gullar odam... diqqati... o'z... tortadi.

### 3-topshiriq. Nuqtalar o'rniga kerakli olmoshlarni qo'yib ko'chiring.

1. .. shoira Zulfiyaning ko'p she'rlarini yoddan bilaman. 2. .... Universitetimiz Yusuf Hos Hojib ko'chasida joylashgan. 3. .... bergan nazorat ishlarini Vovaga berdim. 4. .... maqolang ham tuman ro'znomasida bosib chiqildi. 5. .... Imtixon paytida o'ziga berilgan

savollarga juda yaxshi javob berdi. 6. ...bu yil... ekskursiyaga borishing rejalashtirildi.

**4-topshiriq. Ko'chiring6 fe'l zamonlarni ko'rsatirn, sintaktik tahlil qiling.**

1. Odamlar kosmosga ko'tarilmoqda, daryo, dengiz va okeanlarni zabt etmoqda, atom energiyasini jilovladilar, g'alla esa g'allaligicha qolmoqda. 2. Yaxshi o'quvchi darslarini o'z vaqtida tayyorlab, badiiy kitoblarni ham o'qib turadi. 3. Bizning guruhimiz talabalari bugun soat ikkida guruh majlisi o'tkazmoqchi. 4. O'rta maktabda o'qib yurgan paytlarimizda biz sinf rahbarimiz bilan tez-tez ekskursiyaga borardik. 5. Talaba bo'sh vaqtlarida har doim o'quv zallarida dars tayyorlaydi. 6. Birinchi va ikkinchi bosqich talabalari to'rtinchi auditoriyaga yig'ilishdi. 7. Ekskursiyadan qaytgach o'z taassurotlarimizni so'zlab berarmiz.

**5-topshiriq. Sodda va qo'shma gaplarni aniqlang, Rus tiliga tarjima qiling.**

1. U yil davomida yaxshi o'qidi va imtihonda a'lo baho oldi. 2. Bahor keldi, gullar ochildi. 3. Men ham o'qidim, ham yozdim. 4. Bugun sen ham o'qiysan, men ham o'qiyman. TDPU ni tamomlaganimdan so'ng, meni maktabga ishga yuborishdi. 5. Bugungi ishni ertaga qo'yma. 6. Havo bulut bo'lib yomg'ir yog'a boshladi.



**1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.**

### **BESH TABIB**

Tabiblarning ulug'i Ibn Sino kunlardan birida qattiq og'rib, ko'rpa-to'shak qilib yotib olibdi. Ibn Sinoning shogirdlari, eng yaqin do'st-birodarlari yig'ilishibdi. Ular yaxshi so'z aytib, ulug' tabibning ko'nglini ko'tarishga, kayfiyatini yaxshilashga harakat qilishsa, shogirdlari uni dori-darmonlar bilan davolashga kirishibdilar. O'limi yaqinligini sezgan Ibn Sino shogirdlariga shunday debdi:

- Ey, shogirdlarim, mening kunim bitgan ko'rinadi. Shu boisdan meni davolayman deb, behudaga harakat qilmanglar. Vafot etsam, yig'i-sig'i,

oh-voh qilib o'tirmanglar. Faqat haqimga duo qilib, onda-sonda qabrimni ziyorat qilsanglar bas. Va yana, ustoz olamdan o'tdi, endi tabobat oqsaydi, deb ham qayg'urmanglar. O'rnimga beshta zo'r tabibni qoldirib ketmoqdaman. Shularning maslahatlariga doimo amal qilinglar, boshqalarni ham shunga da'vat etinglar, - debdi. Shogirdlaridan biri:

- Ustoz, siz aytgan tabiblar kimlar ekan? - deb so'rabdi. Shunda Ibn Sino:

- Men qoldirib ketayotgan zo'r tabiblarimning biri - tozalik, ikkinchisi - parhez, uchinchisi - badan tarbiyadir. Va qolgan ikkisi mijoz va kayfiyat hisoblanadi. Doimo pokiza, ozoda bo'lishlik, duch kelgan ovqatni yeya bermaslik, apil-tapil ovqatlanmaslik, parhez va me'yorni bilishlik, ichkilikka ruju qo'ymaslik, badan a'zolarini harakatsiz qoldirmaslik, mijozni unutmashlik va nihoyat, kayfiyatni yaxshi tutishga harakat qilish lozim. Aytganlarimga amal qilinsa, kasallanish u yoqda tursin, hattoki bevaqt o'lim ham orqaga chekinishi mumkin.

### Lug'at

tabib - лекарь

og'rimoq - болеть (где-то); здесь: заболеть

do'st-birodar - друг, приятель, брат, товарищ

kayfiyat - самочувствие, настроение

shogird - ученик

qabrni ziyorat qilmoq - посетить могилу

qayg'urmoq - горевать, печалиться

parhez - диета, воздержание в еде

### 2-topshiriq. Quyidagi so'zlarning sinonimlarini toping:

qattiq, og'rimoq, shogird, do'st, ulug', harakat qilmoq, yana, badan.

### 3-topshiriq. Savollarni murakkab tarzda qayta tuzing va javob bering.

1. Kim kasal bo'lib qoldi?
2. Do'st-u birodarlari va shogirdlari nima qilishdi?
3. Bunga javoban tabib nima dedi?
4. Ustoz aytgan tabiblar kimlar edi?

5. Nimalarga amal qilinsa sog' va salomat yashash mumkinligi haqida aytdi?

**4-topshiriq.** Nima deb o'ylaysiz, uzoq umr ko'rish uchun yana nimalarga amal qilish kerak? O'z fikr-mulohazangizni yozing.

**5-topshiriq.** Sog'lom turmush tarzi deganda nimani tushunasiz? Shu haqda matn tuzing.



**1-topshiriq.** Matni o'qing, mazmunini aytib bering.

### TABIATNING O'ZI TABIB

Dilingizda rejalar bisyor. Qilaman degan ishlaringiz oshib-toshib yotibdi. Buyog'i, semestrning oxirgi kunlari. Vaqtingiz qolib ketgan konseptlarni yozish-u yakuniy nazorat ishlariga hozirlik ko'rish bilan o'taqi. Asabiylashasiz. Mana shunday vaziyatda yodingizdan chiqarmang: kishida turli xastaliklarga chalinish ehtimoli bir qadar kuchayadi. Siz endigina suyagi qotayotgan yoshdasiz. Har nimaga asabiylashavermang. Xatto, ayrimlar nazarida eng yengil xastalik sanalmish shamollash ham doim kayfiyatsiz yuradiganlarga tezroq "yopishadi".

Tabiatning o'zi tabib deyдилar. Bekorga uni onaga qiyos etishmaydi. Kuzatsangiz, har bir dardga tabiat ne'matlari davo bo'ladi. Avvalo, siz, mening navqiron talaba do'stlaringa sog'liq doimo yo'ldoshingiz bo'lishini tilayman. Buning uchun sizga bir ne'matni tavsiya etamanki, shoyad sizga asqotib qolsa.

Na'matak. Ba'zi viloyatlarda itburun deb ataladigan ushbu o'simlikning mevalari asosida tayyorlangan damlama qon to'xtatuvchi, isitma tushiruvchi dori sifatida qo'llaniladi. U nafaqat shamollash, balki gripp va boshqa turli yuqumli kasalliklarga nisbatan immunitetni oshiruvchi samarali vositadir. Na'matak preparatlari mador qurishi, kamqonlikda ham yaxshi foyda berishi isbotlangan. Xo'sh, uni uy sharoitida qanday tayyorlash mumkin? Buning uchun og'zi yopiladigan sirli idishga ikki stakan suv quyiladi va bir qoshiq maydalangan ("yong'oqcha"laridan ajratilgan) mevadan solib, o'n daqiqa davomida qo'yib qo'yiladi. Qaynatma dokada suzilgach, unga shakar qo'shib ta'mi yaxshilanadi. Qarabsizki, xushta'm va shifobaxsh ichimlik tayyor. "Sariq

devni minib" asari qahramoni Hoshimjonning tili bilan aytganda, "baniyati shifo bo'lsin" deysiz-u, kuniga yarim stakan (yoki bir piyola)dan uch mahal ichasiz.

Tavsiyamizni erinmasdan bajaring, do'stim. Bilaman, o'qishdagi tashvishlar tufayli, sizda bu kabi "mayda" ishlar bilan shug'ullanib o'tirishga vaqt ham, hafsala ham kam. Biroq unutmangki, sog'liq barchasidan ustun.

(M.Nabiyev)

### Lug'at

tabiat – природа

reja – план

xastalik – болезнь, недуг

ne'mat – благо, пища

na'matak – шиповник

damlamoq – заваривать

isitma – жар, температура

shifobaxsh – исцеляющий, целебный

**2-topshiriq.** Bir ustunga ko'p ma'noli, ikkinchisiga omonim so'zlarni yozing, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Meva, yosh, yengil, atamoq, qaynatma, suz, ustun.

**3-topshiriq.** Yana qanday o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlari haqida bilasiz?

**4-topshiriq.** She'rni ifodali o'qing.

### NA'MATAK

Oybek

Nafis chayqaladi bir tup na'matak,

Yuksakda shamolning belanchagida.

Quyoshga ko'tarib bir savat oq' gul.

Viqor-la o'shshaygan qoya labida.

Nafis chayqaladi bir tup na'matak.

Mayin raqsga hech qoniqmas ko'ngil,

Vahshiy toshlarga ham u berar fusun.



So'nmaydi yuzida yorqin tabassum,  
Yonoqlarin tutib oltin bo'sa-chun,  
Quyoshga tutadi bir savat oq gul.

Poyida yig'laydi kumush qor yum-yum,  
Nafis chayqaladi bir tup na'matak.  
Shamol injularni separ chashmadek,  
Boshida bir savat oq yulduz chechak,  
Nozik salomlari naqadar ma'sum.



### 1-topshiriq. Matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

## SAYROQI QUSH

Keksalar, bedana sayrasa miyani ozdirar, kaklik sayrasa fikr va ongni to'ldirar, deyishadi. Darhaqiqat, shunday.

Tog' kakligining tumshug'i va baquvvat oyoqlari qizil tusda bo'lib, bo'yni kalta, tana tuzilishi miqti, qanotlari qisqa va serpat. Bu esa uning havoga vertikal yo'nalishda tez ko'tarila olishiga yordam beradi. Kaklik harsang, tog'da o'suvchi daraxt va bo'talar tagiga in qo'yadi. Tik qoyalar ham ular uchun qulay. Odatda bir yilda bir marta ko'payadi, ikkitadan yigirmatagacha tuxum qo'yadi. Hozir qish. Bu esa kaklik uchun og'ir kechadi...

O'shanda tog'lar qalin qor bilan qoplangandi. Sayroqi qushlar tunda bir-birining pinjiga kirib sovuqdan himoyalanishadi. To'satdan tungi sokinlikni qushlarning qichqirig'i va shovqin-suroni buzib yubordi. Nima bo'ldiykin? Ular tarqalib yakka-yakka bo'lib ketsa, muzlab qolishi hech gap emas. Biror yirtqich quvlab, bechoralarning oromini buzdimikan?

Tong yorisha boshlagach, biz tunda nima bo'lganini bilish uchun atrofga nazar soldik. Kechagi qichqiriq tag'in eshitildi. Nihoyat, beozor jonivorlarning tunagan joyini topdik. Xarsang ortida sochilib yotgan patlar va qon izlaridan mahluqning atigi ikkita kaklikni tutib yegani ma'lum bo'ldi.

Har tong kakliklarning sayrashi eshitiladi. Bu ularning yaxshi kayfiyatda ekanligini bildiradi. Ular don va hasharotlarni cho'qib «yeb, buloqlarning yoniga qo'na boshlagach, o'g'rincha ov qiluvchilar to'r

yoziq, poylashga tushishadi... Inson zoti o'z nafsig'a boshqa jonzotlardan ko'ra ko'proq erk beradi. Qushlar ham, hayvonlar ham o'z ehtiyojiga qaraydi, qorni to'ygach, ortiqchasiga deyarli qaramaydi. Afsuski, bizda bu tuyg'u boshqacha.

Eshitganda sayrog'idan dil yayraydigan kaklikning yoqimli ovozigagina maftun bo'ladiganlar kam.

Jonivorlar ko'zlari miltiragancha, arqonga chuvalangan oyoqlarini ojizlarcha tipirchilatishadi, xolos...

(A.Saidov)

### Lug'at

kaklik – куропатка каменная

qanot – крыло

qo'ya – скала, утёс

qiyqiriq – крик, вопль, шум, гам

tuyg'u – чувство, ощущение

jonivor – живое существо, живой организм

**2-topshiriq. Matnga savollar tuzing.**

**3-topshiriq. Yana qanday qushlar haqida ma'lumotga egasiz? Kichik hikoya tayyorlang.**

**4-topshiriq. Matndagi sifatlarni aniqlang va ular ishtirokida gap tuzing.**

**5-topshiriq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.**

1. Kaklik xarsang, tog'da o'suvchi daraxt va butalar tagiga in ... . 2. Tong yorisha boshlagach, biz tunda nima bo'lganini bilish uchun atrofga ... . 3. Har tong kakliklarning sayrashi ... . 4. Qushlar ham, hayvonlar ham o'z ehtiyojiga ... ..., qorni to'ygach, ortiqcha deyarli ... .



## 1-topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini gapirib bering.

### O'ZBEKISTON

O'zbekiston Markaziy Osiyoning o'rta va shimoliy qismida joylashgan. Shimoli-sharqda Qirg'iziston, Shimol va shimoli-g'arbda Qozog'iston, janubi-g'arbda Turkmaniston, Janubi-sharqda Tojikiston Respublikalari bilan, Janubda qisman Afg'oniston bilan chegaradosh.

Respublika hududi janubi-sharqdan shimoli-g'arbga cho'zilgan va yer yuzasi ham shu yo'nalishda yirik daryolar oqimiga mos pasayib boradi. Shimoli-g'arbida Orol dengiziga tutash. Maydonining ko'p qismi tekislik, oz qismi tog', adir va tog' oldidan iborat. O'zbekiston hududidan Markaziy Osiyoning eng katta daryolari – Amudaryo va Sirdaryo oqib o'tadi. Bu ikki azim daryo orasidagi hudud Turon past-tekisligi deb ataladi. Bu tekislikning ko'p yeri Qizilqumdan iborat, ba'zi joylarda qirlar uchraydi. Respublikaning sharqi va janubi-sharqiy qismida Tyanshan, Oloy, Turkiston, Zarafshon va Xisor tog'lari bor.

Bu tog'lar orasida Farg'ona, Zarafshon, Kitob-Shaxrisabz, Surxon-Sherobod, Chirchiq-Ohangaron kabi katta cho'kmalar - vodiylar joylashgan. To g'larning cho'qqilari muzliklar, doimiy qor qatlamlari bilan qoplangan.

O'zbekiston turli foydali qazilmalarga boy. Vatanimiz o'zining paxtasi, pillasi bilan mashhur.

#### Lug'at

shimol	—	север
janub	—	юг
chegaradosh	—	сопредельный, граничащий
daryo	—	река
tekislik	—	равнина
tog'	—	гора
orasida	—	между
qir	—	предгорье

## 2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. O'zbekiston qaysi respublikalar bilan chegaradosh?
2. O'zbekiston Respublikasi hududidan qaysi daryolar oqib o'tadi?
- 3.

O'zbekiston Respublikasida qanday tog'lar bor? 4. O'zbekistonda nechta viloyat bor?

**3-topshiriq. Quyidagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.**

Tog', bog', g'oz, g'alla, qarg'a, gap, gul, giyoh.

**4-topshiriq. O'zbekistonni nima uchun sevasiz? Shu haqda hikoya tuzing.**



**1-topshiriq. Matnni o'qing.**

### **BUYUK IPAK YO'LI**

Buxoro, Xiva, Samarqand, Toshkent, Farg'ona vohasi, Qarshi cho'llari – qadimiy Buyuk Ipak yo'lidagi asosiy manzillardir. Arxeologlarning ta'kidlashicha, uning tarixi eramizgacha bo'lgan II asrga borib taqaladi. Karvon yo'llari Markaziy Osiyoning ikki asosiy daryosi – Amudaryo va Sirdaryo yoqalab Qizilqum va Qoraqum qumloqlari bilan borib, Tyan-Shan tog' devonlari va Pomir – Oloy tizmalari osha Sharqni G'arb bilan, Yaponiyani Hindiston va Xitoy bilan, Angliya, Frantsiya va Portugaliya bilan ulangan. Qadimiy o'zbek tuprog'i hududidagi necha-necha shaharlar, vohalar, sahrolar, daryolar, tog'lar va cho'llar bu yo'l ular oraliq'ida ko'prik vazifasini o'tagan madaniyatning rivojlanganligidan dalolat beradi.

Tarixning shoxidlik berishicha, Ipak yo'li necha ming yillar mobaynida ikki qit'adagi necha-necha xalqlarning bir-biriga integratsiyasida yaqinlashishida eng muhim rol o'ynagan. Mahsulot, bilim, texnologiya va madaniyat almashinuvi aynan shu yo'l orqali sodir etilgan va natijada shaharlar hudud, davlatlar rivojlanib borgan.

### **Lug'at**

voha  
sahro  
tog' dovoni  
cho'l  
qit'a  
madaniyat

долина  
степь  
горный перевал  
пустыня  
континент  
культура

tarix  
mahsulot  
shohidlik bermoq

история  
товар  
свидетельствовать

**2-topshiriq. Shaharlar orasidagi masofani aniqlang va ularni o'zaro taqqoslang.**

1. (Samarqand –Toshkent) Samarqanddan Toshkentgacha 365 km.
2. (Toshkent – Namangan) .....
3. (Toshkent – Nukus).....
4. (Qarshi – Termiz) .....
5. (Farg'ona – Toshkent) .....
6. (Buxoro – Urganch).....
7. (Samarqand – Buxoro).....
8. (Termiz – Toshkent) .....

**3-topshiriq. Quyidagi so'zlarning sinonimlarini toping:**

yuz, quyosh, katta, nur, baxt, sovg'a, nasihat.

**4-topshiriq. Berilgan so'zlarning omonimini toping, ular ishtirokida gaplar tuzing.**

o't, bog', ot, oshiq.

**5-topshiriq. Maqollarda berilgan antonimlarni juft holda yozing.**

1. Dushman aslo, do'st bo'lmas. 2. Avval o'yla, keyin so'yla. 3. Ko'z qo'rqoq, qo'l botir. 4. Mard – o'zar, nomard – to'zar. 5. Ko'p gapdan oz bo'lsa ham ish yaxshi.



**1-topshiriq. Matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.**

**O'ZBEKISTON IQLIMI**

O'zbekistonning iqlimi kontinental (quruq iqlim). Yoz davrida bulutli kunlar kam va shu sababli quyosh nur sochib turgan paytlar ko'p bo'ladi. Kunning uzunligi yozda taxminan 15 soatni, qishda kamida 9 soatni tashkil qiladi.

Respublikamizda eng sovuq oy yanvar bo'lib, bunda shimolda harorat 8° gacha, ba'zan undan ham pasayadi. Termiz shahri atrofida esa shu paytda havo issiq bo'lib, harorat o'rtacha +2,8 darajani tashkil qiladi. Qishda havo eng soviganida harorat 35-40 darajagacha yetadi. O'zbekistonning eng shimoliy qismida qish davri besh oyga cho'ziladi.

Yilning eng issiq oyi iyul. Tog'li hududlarda esa iyul-avgust. Tog'yonbag'irlarida harorat +25- +30 daraja bo'ladi. Janubda (Termiz va Sherobodda) issiq +31 +32 darajaga yetadi. Yozda harorat +42 darajadan oshadi.

O'rta Osiyodagi, shuningdek, O'zbekistondagi eng ulkan daryolar Amudaryo bilan Sirdaryodir. Amudaryoning umumiy uzunligi 1427, Sirdaryoniki 2137 km ni tashkil qiladi.

Bu ikki daryo va ularning irmoqlari O'zbekistondan tashqarida boshlanadi. Amudaryo, asosan, Panj va Vaxsh daryolarining, Sirdaryo - Norin daryosi ya Qashqadaryoning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Sirdaryo Amudaryodan uzun bo'lsada, ammo suvi kam.

O'rta Osiyodagi ikki ulkan daryo Amudaryo va Sirdaryo havzalarini tashkil qiladi. Sirdaryo havzasiga Norin. Qashqadaryo, Chirchiq, Ohangaron, So'x, Isfara, Oqbora, Isfavramsoy, Shohimardon, Quvasoy va Kosonsoy daryolari, Amudaryo havzasiga Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, To'palangdaryo, Sherobod daryolari kiradi. Amudaryoning ham, Sirdaryoning ham irmoqlari, asosan, o'zining o'rta va quyi oqimlari doirasidagina respublika hududidan o'tadi.

Respublika hududida ko'llar kam. Ulardan eng kattasi Orol ko'lidir. Bu ko'l ancha katta maydonni egallaganligi sababli dengiz deb ham ataladi.

(A.Mirazizov)

### Lug'at

shimol – север  
harorat – температура  
pasaymoq – снижаться  
tashkil qilmoq – составляет  
irmoq – приток(реки)

tashqarida. — снаружи, извне  
hosil bo'ladimi — образуется, получается  
hovuz — бассейн, котловина  
oqim — течение  
doirasidagina — лишь в пределах

## 2-topshiriq. So'zlarni tartib bo'yicha joylashtirib, gap tuzing.

1. Palto — oldi — qora — dugonam — issiq — sotib. 2. Turasizmi — etigingizni — menga — chiroyli — berib — qora. 3. O'zbekcha — do'stim — issiq — amerikalik — kiyadi — chopon — sovuqda. 4. Shim — yoqdimi — bu — qora — sizga — keng. 5. Keyin — yog'a boshladi — chiqqandan — yomg'ir — ko'chaga — mera.

## 3-topshiriq. Nuqtalar o'rniga mos rang-tus sifatlarni yozib ko'chiring.

1. Paxta .....rangda bo'ladi. 2. Barglar .....rangda bo'ladi. 3. Quyosh .....rangda bo'ladi. 4. Gullar .....rangda bo'ladi. 5. Qog'oz .....rangda bo'ladi.

## 4-topshiriq. Gaplardagi sifatlarni orttirma darajada yozing.

1. Miraziz qora futbolka sotib oldi. 2. Nozima qo'g'irchog'iga oq ko'ylak tikdi. 3. Go'zal bugun xafa. 4. Ruslarning mashinasi chiroyli. 5. Bizning xona toza. 6. Zarina kamtarin inson. 7. Nilufar aqlli qiz.



## 1-topshiriq. Mitni o'qing.

### GIPPOKRAT

Gippokrat (Hippokrates) (mil.av. 460, Kos oroli-377, Fessaliya), Buqrot, Abuqrot — yunon vrachi, ilmiy tibbiyot asoschilaridan biri. Gippokrat Yunonistonda mashhur bo'lgan shifokor gippokratlar sululasining o'n sakkizinchi avlodi. U tibbiyotga oid ma'lumotni otasi

Geraklitdan olgan. Gippokrat asarlari G'arb va Sharq vrachlari qo'lida mo'tabar qo'llanma bo'lib keldi. Gippokratga 75 ga yaqin asar nisbat beriladi. "Majmuayi Buqrotiya" ("Buqrot to'plami") nomi bilan mashhur bo'lgan bu asarlarning aksarisini Gippokrat vafotidan keyin o'g'illari va shogirdlari yozgan. Gippokrat asarlarini va ularga Galen bergan sharhlarni Hunayn ibn Ishaq (809-877) suryoniy va arab tillariga tarjima qilgan.

Gippokrat tibbiyotni kohinlar ta'siridan qutqardi va uning mustaqil rivojlanish yo'llarini ta'rifladi, vrach kasallikni emas, balki bemorni davolashi kerak, deb ta'lim berdi. Tashqi muhit omillari (iqlim, tuproq, suv kishilarning hayot yo'sini, mamlakat, qonunlari va b.)ni odamga, unda jismoniy va ruhiy xususiyatlarning shakllanishiga ta'siri jihatdan ajratdi. Shifokor xulq-atvorining qisqacha ta'rifi bo'lgan qasamyod ("Gippokrat qasamyodi") matnini ham Gippokrat yozgan deyiladi. Gippokratni "tibbiyotning otasi", deb ataydilar.

### Lug'at

tibbiyot – медицина

avlod – потомок

asar – произведение

shogird – ученик

kohin – жрец, маг

omil – фактор, причина


jismoniy – физический, телесный

ruhiy – духовный, нравственный

qasamyod – давать клятву, присягу



## 2-topshiriq. Odamning ichki a'zolari nomini toping.



## 3-topshiriq. O'qing, o'zbek tiliga tarjima qiling.

Вирус гриппа имеет диаметр от 0,08 до 0,1 мкм. Диаметр клетки микоплазмы равен 0,1-0,2 мкм. Диаметр самых мелких клеток животных составляет 4 мкм. Объем большинства клеток человека составляет от 200 до 15 000 мкм<sup>3</sup>. Цитоплазматический матрикс представлен иногда тонкими нитями толщиной менее 10 нм. Рибосомы – сферические тельца размерами 15-35 нм.


Лизосомы – шаровидные образования, имеющие диаметр от 0,2 до 1 мкм. Митохондрии – органоиды в виде гранул, палочек, имеющие величину от 0,5 мкм до 7 мкм. В зависимости от функций клеток количество митохондрий колеблется от 1 до 500 000. Центриоль – это цилиндрическое тельце, имеющее длину 0,3-0,5 мкм и диаметр около 0,15 мкм.

## 4-topshiriq. Odamning skelet muskullari va qon aylanish sistemasi nomlarini rus tilidagi muqobilini keltiring.


yuz muskullari  
trapetsiyasimon muskul

to'sh – o'mrov-so'rg'ichsimon o'siq muskuli  
deltasimon muskul  
ko'krakning katta muskuli  
yelkaning ikki boshli muskuli  
oldingi tishli muskul  
qorinning tashqi qiyshiq muskuli  
qorinning to'g'ri muskuli  
qo'l panjasini bukuvchi bilak muskuli  
sonning to'g'ri muskul  
sonning tashqi serbar muskuli  
sonning ichki serbar muskuli  
sonning to'rt boshli muskuli tizza qopqog'i bilan birga  
yakka arteriyasi  
yuz arteriyasi  
uyqu arteriyasi  
ichki bo'yinturuq arteriyasi  
o'mrov osti arteriyasi  
o'mrov osti venasi  
aorta ravog'i  
qo'ltiq venasi  
o'pka arteriyasi  
o'pka  
yelka arteriyasi

**5-topshiriq. Odam a'zolarini o'zbek tilida nomlang.**



### Б. Части головы



### 1-topshiriq. Matnni o'qing.

#### NIMA EKSANG, SHUNI O'RASAN

Bir yigit ko'zlari xiralashgan, ovqat yeganda qo'llari qaltiraydigan qari otasining izzat-hurmatini bajo keltirmasdi.

Bir kuni chol bechora qo'li titrab, osh suzib berilgan kosani tushirib sindirdi. Buni ko'rgan kelin achchiq so'zlar bilan qaynotasining ko'nglini

vayron qildi. Shundan keyin yigit otasini hovlining bir chekkasidagi zax uyga ko'chirdi. Kelin esa qaynotasiga eri keltirib bergan yog'och kosada ovqat bera boshladi.

O'g'li va kelinining bu kabi yaramas muomalalaridan ko'ngli ozor topgan ota vafot etgan kampirini eslab, ba'zan o'ksib-o'ksib yig'lardi. Chol besh-olti yoshli nabirasi bilangina tasalli topar edi. Bola bobosining yoniga kelib o'tirardi. Yoqimli qiliqlari bilan bobosini kuldirib, uning qayg'u alamlarini yengillatardi.

Bir kuni bola qo'liga pichoq olib, yog'och bo'lagini yo'na boshladi. Shu payt dadasi kelib qoldi. O'g'lining yog'och yo'nib o'tirganini ko'rib: - O'g'lim, nima qilyapsan? - deb so'radi.

O'g'li yugurib kelib, dadasini quchoqlab oldi va erkalanib:

- Dadajon, siz buvamga yog'och kosa keltirib bergan edingiz-ku, oyim shu kosada buvamga ovqat beradilar. Men ham yog'och kosa yasayapman, katta bo'lganimda oyim bilan sizga shu kosada ovqat beraman, - dedi.

O'g'lining bu so'zi yigitga qattiq ta'sir qildi. U ko'z yoshlari qilib, otasining huzuriga kirdi, tiz cho'kib uzr so'radi, quchoqlab o'pib, uning ko'nglini ko'tardi. Darrov uni o'zi turgan uy yonidagi issiq xonaga ko'chirdi. Har vaqt otasining holidan xabar olib turdi va u bilan birga ovqatlandi. Kelin ham qaynotasining izzat-hurmatini o'rniga qo'ya boshladi. O'g'li va kelinining bu ishlaridan xursand bo'lgan ota:

- Bolalarim, mana endi sizlardan roziman, - deb nabirasini ti'zlasiga o'tqazdi va uni yuz-ko'zlaridan o'pib erkaladi.

## Lug'at

ko'zi xiralashmoq - помутнение зрения

qaltiramoq - дрожать, трястись

ko'nglini vayron qilmoq - обидеть

zax - сырость

izzat-hurmat - уважать

bajo keltirmoq - исполнить

yig'lamoq - плакать

qayg'u-alam - горе, огорчение, печаль, скорбь.

**2-topshiriq. Savollarni murakkab tarzda qayta tuzing va javob bering.**

Yigit otasiga qanday munosabatda edi?

Bir kuni nima voqea sodir bo'ldi?

Kelin nima qildi?

Ota nima qildi?

Nevarasi nima qildi va otasiga nima dedi?

Yigit nima qildi?

Sizning buvangiz bormi?

Siz ularga qanday munosabatda bo'lasiz?

**3-topshiriq. Quyidagi so'z birikmalaridan to'g'ri va ko'chma ma'nodagilarini ustunlarga ajratib yozing.**

Achchiq haqiqat, achchiq qalampir, achchiq gap, achchiq so'z, achchiq ko'z yoshi, shirin so'z, shirin so'z, shirin qiz, shirin muomala, shirin choy, shirin olma. Bemaza ovqat, bemaza so'z, bemaza gap, bemaza film.

**4-topshiriq. Gaplarni davom ettiring.**

1. O'rtog'im bilan uchrashish uchun .... 2. Uyni ta'mirlash uchun .... 3. Sog' bo'lish uchun.... 4. Kitob sotib olish uchun.... 5. Bolalari xursand bo'lishi uchun.... 6. U kasal bo'lgani uchun....

**5-topshiriq. Fe'ning hozirgi zamon qo'shimchalaridan mosini qo'yib, savollarga javob bering.**

Namuna: Siz nima qil....? – Siz nima qilayapsiz? (kechki ovqat tayyorla-) – Men kechki ovqatni tayyorlayapman.

Talabalar qayerga ket....? (muzeyga). 2. U qayerdan kel....? (universitetdan). 3. Taksi qayerda tur....? (institut yonida). 4. Rahbaringiz nima qil....? (majlis o'tkazmoq).



**1-topshiriq. O'qing, o'zbek tiliga tarjima qiling. Mazmunini aytib bering.**

**ДОКТОР**

- Доктор... вы знаете, доктор...
- Ну, что?
- У меня зуб болит, доктор!
- Ничего у вас не болит.
- Как же не болит? Нет, болит - от холодного.
- А вы не ешьте холодного.
- Как же не есть? А если придётся?
- Когда придётся? Зачем придётся? Назовите мне такой обязательный случай, когда вас непременно заставляют есть холодное! Мне даже интересно.
- Ну, мороженое, например.
- Ничего, без мороженого вы не умрёте. Это не есть обязательный для жизни продукт. Ишь чего захотели - с больным зубом мороженого.
- Да ведь я люблю мороженое!
- Мало ли кто чего любит. Надо взять себя в руки. Это и горлу не полезно. Не ешьте мороженого! С возрастом приходится себя ограничивать. Дальше?
- Или чистить зубы по утрам - когда полощешь.
- Вы что же - полощите зубы холодной водой?
- Да... холодной. А что?
- Из-под крана?
- Из-под крана.
- Да вы что? Нет, вы лучше никому не говорите об этом! Полоскать из-под крана! А после, конечно, прибегают лечиться. Горячей, горячей полощите! Чтобы только терпеть. Забудьте про холодную воду в этом смысле! Ну, что ещё?
- А вот, к примеру, на улице... мороз... Новый год...
- Не разговаривайте на улице! Дальше?
- Даже если не разговаривать... холодный воздух... если еду на лыжах, например... дышу полной грудью...
- Не дышите грудью! Дышите носом. Носом, носом дышите! В носу зубов нету, воздуха нос не боится, дышите носом, дышите... по носам другие врачи.
- Доктор, но там всё равно, посмотрите, дырка.
- Дырка? Где дырка? В носу дырка?
- Не в носу... в носу, конечно, тоже... в носу даже две.
- Вот и хорошо! Дышите носом, дышите полным носом... второй кабинет направо... а зубом не касайтесь.

- Посмотрите всё же, доктор, этот зуб... там глубокая дырка...она и болит от холодного.

- Ну и что же, что дырка? Мало ли дырок у нас в организме? Я не вижу, зачем вам понадобилось набирать в рот холодное и расстраивать зубы. Сейчас же у вас не болит?

- Нет.

- От горячего не болит?

- Нет.

- От крепкого не болит?

- Нет.

- Кричать не болит?

- Нет.

- Молчать не болит?

- Нет.

- Вот и хорошо. Вот и молчите. А лечить будем - не так заболит и хорошо, вылечим этот - заболит другой. Раз теперь не болит - и хорошо, идите.

(В. Марамзин)

### Lug'at

доктор – shifokor

полоскать – chaymoq, chayqamoq

терпеть – chidamoq, bardosh bermoq

грудь – ko'krak

дышать – nafas olmoq

касаться – teginmoq

лечить – davolamoq

### 2-topshiriq. Gaplarni o'qing, fe'llarni to'g'ri tuslang.

1. Kecha uning tishi ....(og'rimoq).
2. Yoshligimda meni otam va onam tishlarimni .... (tozalamoq).
3. Biz ertaga shifokorga ....(bormoq).
4. Bemor og'ziga suv ....(to'ldirmoq), tishlarini chayishni (boshlamoq).
5. Bir tishimni ....(tuzatmoq) edim, bosjqasi ....(og'rimoq).

### 3-topshiriq. Quyida keltirilgan ichki a'zolar rus tilida qanday nomlanadi?

kekirda k –  
o'ng o'pka –  
chap o'pka –  
yurak –  
o't pufagi –  
jigar –  
me'da –  
yo'g'on ichaklar –  
ingichka ichak –  
qovuq –

**4-topshiriq. Odamning skelet muskullari va qon aylanish sistemasi nomlarini rus tilidagi muqobilini keltiring.**

taloq arteriyasi  
taloq  
buyrak arteriyasi  
buyrak venalari  
urug' venalari  
urug' arteriyalari  
tirsak arteriyasi  
bilak arteriyasi  
yonbosh arteriyasi  
qorin osti arteriyasi  
kaftning arterial ravog'i  
son suyagini o'rab turvchi arteriyasi  
son arteriyasi  
son venasi  
katta boldirning oldingi arteriyasi  
katta boldirning orqa arteriyasi  
oyoq panjasining orqa arteriyasi

◇◇◇

**1-topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini aytib berishga tayyorlaning.**

**IBN SINO VA ILON**



Ibn Sino etti yoshida tushida bir nechta ilon ko'ribdi. Ilonning birinchisi unga sut berib, bu bosh og'rig'iga davo debdi. Ikkinchisi ham sut berib, bu ichak kasaliga davo, debdi. Uchinchisi sariq ilon sariq sut berib, uni singanga davo, debdi. To'rtinchi ilon qora sut berib, yaraga davo, debdi.

Cho'chib uyg'ongan Ibn Sino ilonlarni izlab ketibdi. Bir qancha ilonlarni tutib kelibdi. Ular ichidan beshinchi va oltinchi ilon tushidagi ilonlarni eslatibdi. Bo'lg'usi shifokor ulardan zahar olib, qo'y sutiga qo'shib, yetti kun dori tayyorlabdi. Yosh tabib sakkizinchi kundan kishilarni davolay boshlabdi.

## **2-topshiriq. Berilgan anatomik terminlarning o'qing o'zbek tilidagi muqobilini toping.**

- головка ребра —
- гребень головки ребра —
- крыло кости —
- брюшко мышцы —
- ветвь нижней челюсти —
- носовая раковина —
- лобная чешуя —
- бугорок —
- возвышение —
- рог —
- борозда —
- ямка —
- щель —
- турецкое седло —

## **3-topshiriq. Yana qanday anatomik terminlarni bilasiz, yozing.**



## **1-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.**

**ЭКОЛОГИЯ — ПРОБЛЕМА ГЛОБАЛЬНАЯ**

Когда мы говорим «экология», сразу возникают ассоциации с Чернобылем, Байкалом, Аральским морем. Однако экологические проблемы присутствуют везде, пронизывают всю нашу жизнь. Они тесно переплетаются с другими проблемами и обуславливаются целым рядом факторов.

Везде, где есть много крупных предприятий промышленности и сельского хозяйства, давление на природу огромно. Загрязняются почва и воздух, водоемы.

Подольск - небольшой городок недалеко от Москвы. В экологическом отношении - он самый неблагоприятный в Подмосковье. Выбросы вредных веществ в воздух здесь превышают предельно допустимые нормы в 9-13 раз. Содержание пыли в 12 раз выше допустимого.

В критическом состоянии река Пахра. Промышленные отходы зачастую сбрасываются в нее без очистки. Поэтому содержание нефтепродуктов в воде в 360 раз выше допустимого. И это немедленно сказывается на здоровье людей.

Статистика показывает, что жители Подольска болеют гораздо чаще, чем в среднем по России. Часто это очень серьезные заболевания: злокачественные новообразования, болезни органов дыхания, пищеварения, кровеносной и лимфатической систем.

40% загрязнений воздушной среды дает энергетика. Много малых предприятий используют в качестве топлива уголь и мазут. Это значит, что в воздух выбрасываются такие вредные вещества, как оксиды серы и азота, сажа, зола. Эти предприятия необходимо укрупнять, переводить на газовое топливо и, конечно, строить очистные сооружения. Всем этим должны заниматься как местные, так и государственные власти. Контроль экологической ситуации и стимулирование природоохранительной деятельности должны стать одной из их важнейших функций.

Но природу может отравлять не только промышленность. Современное сельское хозяйство - это огромные животноводческие и овощеводческие комплексы. В Подольском районе их несколько. Когда их строили, об экологических проблемах не думали. И в результате все отходы, минеральные удобрения, пестициды смываются в реки. В Оке предельно допустимые их концентрации выше всех норм. Ока стала одной из самых грязных рек России, почти утратив способность к самоочищению. По мнению Председателя Правления Фонда «Инженерная Экология»

экологическая катастрофа - это следствие катастрофы культурной, как производственной, так и духовной. Россия не сможет решить экологические проблемы, пока не будет резко поднят уровень общей культуры. Ведь экологические проблемы - это проблемы нравственного состояния общества. В обществе, где падает престиж образования, где ученый вынужден уходить в коммерцию, чтобы выжить, потому что на его знания нет спроса, когда телезрителям вместо классической оперы упорно навязывают «мыльную», а ребенок предпочитает считать доллары, а не российские рубли, - в таком обществе встает проблема еще одной экологии - экологии души.

### Lug'at

море – dengiz

переплетаться – chatishib, o'ralib ketmoq

предприятие – korxon

сельское хозяйство – qushloq xo'jaligi

вредное вещество – zararli modda

уголь – ko'mir

мазут – mazut (neft qoldig'i)

культура – madaniyat

экологическая катастрофа – ekologik favqulotda vaziyat

**2-topshiriq.** Matndan ot, sifat, son so'z turkumlariga oid bo'lgan so'zlarni toping va ular ishtirokida gaplar tuzib daftaringizga yozing.

**3-topshiriq.** Nuqtalar o'rniga harakat nomi affikslaridan mosini qo'yib gaplarni ko'chiring.

1. U hozir tush .....kerak.
2. Dugonam avtobusda kel ..... kerak.
3. Chorsu bozoriga qanday bor.....mumkin?
4. Men kechqurun do'stim bilan uchrash.....kerak.
5. Biz Amir Temur xiyoboniga bor ..... kerak.

**4-topshiriq.** Hozirgi kunda Orol muammosini barta'raf etish yuzasidan qanday ishlar amalga oshirilyapti? Kichik matn tuzing.

## 5-topshiriq. So‘zlarni to‘g‘ri joylashtirib, gap tuzing.

1. Ertaga – borishim – ishga – kerak. 2. Chiroyli – Zilola – va – qiz – odobl. 3. Kitob – ekan – qiziqarli – bu – juda. 4. Ertaga – tug‘ilgan – Lolaning – kuni.



## 1-topshiriq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

### ЛЕГЕНДА ОБ УРАЛЕ

Это было давно.

У высоких гор жили люди. Они пасли в горах овец, ходили в лес на охоту.

Однажды у одной женщины родился мальчик. Один очень умный старик долго смотрел на него и потом сказал людям:

- Он будет сильным и красивым, и мать даст ему имя Ур, - это значит Земля.

- Так и будет, - сказала мать и дала сыну имя Ур.

- Твой сын будет ждать девушку, - говорил старик. - Эта девушка спит в горах. Она проснётся, и тогда твой сын уйдёт вместе с ней в землю.

Мальчик стал высоким и красивым юношей. Однажды утром, как всегда, он пас своё стадо. Вдруг прилетел огромный орёл и схватил овцу. Юноша выстрелил в орла. Орёл упал на вершине горы. Ур пошёл в гору. Дорога была очень трудная.

На Вершине горы Ур увидел девушку. Она сидела и плакала.

- Почему ты плачешь? - спросил юноша.

- Ты убил моего орла! - ответила девушка. - Я послала его на землю. Он должен был найти юношу Ура.

- Твой орёл привёл его к тебе.

- Так это ты Ур?

- Да. А тебя как зовут?

- Меня зовут Золотая.

- Что это значит?

- Золото - это такой камень. Его мало в земле. Пойдём, я покажу тебе этот камень и другие богатства земли.

Юноша пошёл за девушкой в землю.

- Ты будешь жить здесь со мной и охранять богатства земли, - сказала девушка. - Когда придёт время, мы покажем людям эти богатства и будем помогать находить их.

- Да, я останусь здесь с тобой, - ответил юноша. - Только дай мне кусок жёлтого камня и пойдём сначала к твоему орлу.

На вершине горы Ур сделал стрелу из жёлтого камня и послал её вниз. А потом последний раз посмотрел на солнце и ушёл с девушкой в землю.

Когда люди нашли золотую стрелу, умный старик посмотрел на неё и сказал:

- Жёлтый камень - это знак девушки, у которой остался Ур. На нашем языке этот камень будет называться Ал.

С тех пор и зовут эти горы Урал - Земля Золотая.

Урал - граница между Европой и Азией. Он богат разными полезными ископаемыми.

### Lug'at

охота - ov

умный - aqilli

старик - qariya, chol

дать - bermoq

ждать - kutmoq

спать - uxlamoq

проснуться - uyg'onmoq

уйти - ketmoq

орёл - burgut

плакать - yig'lamoq

убить - o'ldirmoq

камень - tosh

богатство - boylik

охранять - qo'riqlamoq



1-topshiriq. Matnni o'qing, tarjima qiling.

ВОЛГА И ВАЗУЗА

Жили две сестры: старшая сестра Волга и младшая сестра Вазуза. Однажды они поспорили, кто из них быстрее. Долго они спорили. Потом решили утром бежать к морю. Кто быстрее добежит до моря, тот сильнее - решили они.

Вазуза хотела обмануть сестру. Она встала раньше и побежала к морю.

Когда Волга утром увидела, что её сестра ушла, она тихо пошла к морю. Скоро Волга догнала Вазузу, которая очень устала и не могла бежать дальше. Волга простила свою сестру, взяла её и понесла к морю. Так они вместе добежали до моря.

Эту легенду рассказывает народ о русских реках Волге и Вазузе. Река Волга начинается далеко на севере в деревне Волго. Там есть небольшой колодец. Из него течёт Волга. А река Вазуза начинается в горах. Зимой реки стоят. На них лёд. Весной Вазуза первая ломает лёд и течёт быстро. А Волга ломает лёд позже и течёт медленно. Когда реки встречаются, Волга уже большая, а Вазуза очень маленькая. Вазуза впадает в Волгу, и Волга становится ещё больше. Она течёт с севера на юг через всю Россию и впадает в Каспийское море.

### Lug'at

бежать – yugurmoq  
быстрее – tezroq  
сильнее – kuchliroq  
обмануть – aldamoq  
уйти – ketmoq  
тихо – jim, sekin  
простить – kechirmoq  
колодец – quduq  
лёд – muz

**2-topshiriq. Matn yuzasidan savol-javob qiling.**

**3-topshiriq. Latifalarni o'qing, o'z so'zingiz bilan aytib bering.**

Donishmandlik hamisha ham keksalik bilan birgalikda kelmaydi. Gohida keksalikning o'zi kelishi ham mumkin.

\* \* \*

Tish doktori yordamchisidan so'radi:

- Yana bemorlar bormi? Chaqiring.
- Ha, bittasi bor. Xonangizda.
- U holda nega asboblarni tayyorlamaysiz?
- Bemor eshikni ichkaridan qulflab olgan.

\* \* \*

- Olmazorda nima qilib yuribsizlar, o'g'rimisizlar?
- Og'zingizga qarab gapiring, Nyuton va Arximedlar ham bog' kezib kashfiyot yaratishgan...

**4-topshiriq. O'zbekiston hududidan oqadigan daryolar haqida gapirib bering.**

◇◇◇

**1-topshiriq. Hikmatli so'zlarni o'qing. Mazmunini rus tilida aytib bering.**

Til – millat qalbi. Millatning tabiatini o'rganish uchun eng avval uning tilini o'rganish kerak.

Erazm Rotterdamskiy.

Tilni mensimaslik millatni, Vatanni mensimaslikni ko'rsatadigan o'ta nohush holdir.

Ozod Sharafiddinov.

Biror bir xorijiy tilni o'rganmagan kishi o'z tilining qudratini his eta olmaydi.

Gyote.

Ona tilini bilmasdan qanday qilib xorij tillarni o'zlashtirish mumkin!?

Konstantin Kushner.

Tilni bilmaslik undan foydalanish majburiyatidan xalos qilmaydi.

Eynshteyn.

Ko'p til bilish bir necha kalitga ega bo'lish demakdir.

Volter.

Aqli qisqa-yu, tili uzunlardan extiyot bo'l.

Aristokrat.

Til – sirlar dushmani.

Garri Simanovich.

Til – fikrning libosi.

Oskar Uayld.

## 2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Siz dam olish kunlar nima qilishni yaxshi ko'rasiz? 2. Siz piyoda yurishni yoqtirasizmi? 3. Keyingi hafta nima qilmoqchisiz? 4. Bu yilgi ta'tilda qayerga borishni xohlaysiz? 5. Siz qanday filmlarni miriqib tomosha qilasiz?



1-topshiriq. Matnni o'qing, yana qanday osimliklar haqida ma'lumotga egasiz.

## INSONNING YAXSHI DO'STI

O'rmonlarda o'sadigan qayin daraxti ko'p miqdorda kislorod chiqarar ekan. Ayniqsa, tog' atrofida joylashgan o'rmonlardagi qora qayin kishilar uchun juda foydali ekan. Bir tup qora qayin bir soatda 1 kg 700 g kislorod ishlab chiqaradi.

Bu tog'da o'rmon atrofida yashayotgan kishilarning sog'lom bo'lishiga yordam berib, bir soat mobaynida chiqargan kislorod 65 kishining nafas olishiga yetar ekan. qora qayin bir soatda yerni 200 kg 350 g zaharli gazdan tozalaydi.

2-topshiriq. Testlarni rus tiliga tarjima qiling, o'qing va to'g'ri javobni belgilang.

1. Lantsetnikning qaysi xususiyatlari ignatanlilarga o'xshaydi?

A. Xordasi bo'lishi. B. Tuxum xujayrasi maydalanishi. V. Nerv nayi. G. Blastulasi tuzilishi. D. Jabra yoriqlarining bo'lishi. E. Gastrulasini invoginatsiya orqali xosil bo'lishi.

2. Qaysi qushlar chumchuqsimonlarga kiradi?

A. Qarg'a. B. Kaklik. V. To'rg'ay. G. Mayna. D. Qirg'ovul. E. Bedana. J. Bulbul. Z. Tovus.

3. Qaysi qushlar tavuqsimonlarga mansub?



A. Qarg'a. B. Kaklik. V. To'rg'ay. G. Mayna. D. Qirg'ovul. E. Bedana. J. Bulbul. Z. Tovus.

4. Sut emizuvchilar tishlari va ularga mos tuzilish belgilarini juftlab yozing.


A. Oziq. B. Kurak. V. Qoziq. G. Sut tishlar: 1- ponasimon, o'tkir. 2- uchki qismida bo'rtiqlar bor. 3- yoshi hayvonlarda bo'ladi. 4- konussimon o'tkir.

5. Sut emizuvchilar kichik qon aylanish doirasi bo'ylab qon oqadigan organlarni yurakning qon chiqadigan qismidan boshlab tartib bilan ko'rsating.

A. O'pka arteriyasi. B. O'pka venasi. V. O'ng yurak qorinchasi. G. O'pka kapillyarlari. D. Chap yurak bo'lmasi.

6. Qush tuxumi tuzilishiga tegishli tushunchalarni rasmdan ularga mos keladigan raqamlar bilan birga juftlab yozing. A. Sariqlik parda. B. po'choq. V. Sariqlik. G. Havo kamerasi. D. Embrion disk. E. Po'choq osti parda. J. Oqsil. Z. Kanopcha.


**3-topshiriq. Lantsetnik tanasi uzunasiga kesmasini o'rganing va esda saqlab qoling. Rus tiliga tarjima qiling**



- 1 – paypaslagichlar bilan o'ralgan og'iz oldi teshik,
- 2 – dum suzgich,
- 3 – orqa suzgich,
- 4 – metaplevral qatlam,
- 5 – atrial teshik (atriopor),
- 6 – xorda,
- 7 – miomer,
- 8 – miosepta,
- 9 – nerv nayi,
- 10 – elkan,
- 11 – jabra yoriqlari,

- 12 – ichak,
- 13 – ichakning jigar o'simtasi,
- 14 – jabra oldi bo'shlig'i,
- 15 – qalqum, endostil,
- 16 – jinsiy bezlar.

**4-topshiriq.** Akulaning tashqi ko'rinishini o'rganing va esda saqlab qoling. Rus tilidagi muqobilini aniqlang.



- 1 - tumshuq (rostrum),
- 2 - ko'zi,
- 3 - sachratqich,
- 4 - og'iz teshigi,
- 5 - burun teshigi,
- 6 - jabra yoriqlari,

- 7 - yon chiziq organi teshiklari,
- 8 - kloaka,
- 9 - ko'krak suzgich,
- 10 - qorin suzgich,
- 11 - orqa suzgich,
- 12 - dum suzgich.



**1-topshiriq.** Matnlarni o'qing, rus tiliga tarjima qiling.

### QACHON O'YLAYSIZ?..

Ingliz fiziki Ernest Rezerford bir kuni laboratoriyaga keldi. Vaqt allamahal bo'lishiga qaramay, shogirdlaridan biri qandaydir asbob ustida engashib o'tirgan edi.

- Kech bo'lganda nima qilayapsiz? – so'radi olim.
- Ishlayapman, - dedi shogird.
- Kunduzi nima qilaysiz?
- Ishlayman, - dedi shogird.

- Sahardayam ishlaysizmi? - biroz achchiqroq qilib so'radi olim. Yigitcha ustozining kesatig'ini payqamadi.

- Bo'lmasam-chi! - dedi u maqtovdan umidvor bo'lib.

Rezerfordning qiyofasi tundlashdi va asabiylik bilan so'radi:

- Menga qarang, u holda siz qachon o'ylaysiz?

## **STREPKOKKLAR VA SOSISKALAR**

Bir kuni yosh bir shifokor kirib kelganida mikrobiolog Robert Kox oshxonada kostryulkada nimanidir qaynatib turgan edi.

- Qani, topingchi, men nima qaynatayapman?

- Strepkokklarni! - javob berdi yosh shifokor.

- Yo'q.

- Vabo vibrionlarinimi?

- Yo'q.

- Sil kasali tayoqchalarinimi?

Shunda Kox kostryulka qopqog'ini ko'tarib jilmaydi:

- Sosiskalarni qaynatayapman, yigitcha, sosiskalarni!

### **2-topshiriq. So'zlarning sinonim va antonimlarini toping.**

allamahal, shogird, engashmoq, ishlamoq, yosh.

**3-topshiriq. Ixtisosligingizga oid so'z va iboralar qatnashgan gaplar tuzing.**

**4-topshiriq. "Hayvonot olami" mavzusida hikoya yozishga tayyorgarlik ko'ring.**



### **1-topshiriq. Matnni o'qing.**

## **SAMARQANDGA BORGANMISIZ?**

Hindistonga borib kelgan bir tanishim bilan suhbatlashib qoldim. U taassurotlarini hayajon, zavq bilan gapirib berdi. "Tojmahalni tomosha qilib, Sharq me'morchilik san'atining bu noyob namunasiga hayrat bilan termulib qoldik", - dedi suhbatdoshim. Bizning hayratimizni kuzatib

turgan mahalliy kishilardan biri "Sizlar qayerdan kelgansizlar?" deb so'radi. O'zbekistondan, aniqrog'i, Toshkentdan ekanligimizni aytdik. Shunda haligi kishi yana so'radi: "O'zbekistondan bo'lsangiz, Samarqand bilan Buxoroni ko'rgandirsiz?" Ochiq'i, men haligacha Samarqandga ham, Buxoroga ham bormagan edim. Yolg'on gapirolmadim. Javobimni eshitib haligi hind afsus bilan bosh chayqadi: "Oldingizda turgan Samarqand Buxoroni ko'rmaganmisiz?.. Demak, shu bois bunga hayratlanib qarayotgan ekansiz-da... Menimcha, bu yerlarga kelishdan avval yonigizdagi qadim Samarqand bilan Buxoroni ziyorat qilishingiz lozim edi".

Tanishim o'sha hindning gap i juda qattiq ta'sir qilganini, endi, albatta, Samarqand bilan Buxoroni borib ko'rishini aytdi.

Rosti, tanishimning gap i meni chuqur o'yga toldirdi...

(M.Hazratqulov)

## 2-topshiriq. So'zlarning sinonim va antonimlarini toping.

tanish, noyob, mahalliy, yolg'on, qattiq, chuqur.

## 3-topshiriq. "O'simliklar olami" mavzusida hikoya yozishga tayyorgarlik ko'ring.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rasulov R.Mirazizov A. O'zbek tili. OO'Y rus guruhlari uchun darslik. T.: Aloqachi. 2005.
2. Rasulov R.Mirazizov A. O'zbek tili. O'rta maxsus ta'lim muassasalari rus guruhlari uchun qo'llanma. T.: Fan va texnologiyalar. 2007.
3. Adilova S., To'xtamirzayev M. O'zbek tili. Bakalavriatning barcha yo'nalishlari rusiyazbon talabalari uchun o'quv qo'llanma. T.: Fan va texnologiyalar. 2007.
4. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. Akademik litseylar uchun darslik. T.: Sharq. 2004.
5. M.Usmonova, E.Azlarov., G'.Sharipov. O'zbek tili T., 1987
6. O'.Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar T., 2006.

**ADILOVA Saodat Abdurahimovna**  
**MIRAZIZOV Alisher Mirhosilovich**  
**MIRAZIZOVA Dilorom Muhiddinovna**  
**YUNUSOVA Shahnoza Muhammadumarovna**

**AMALIY O‘ZBEK TILI**

**OLIV O‘QUV YURTI RUS GURUHLARI UCHUN METODIK  
QO‘LLANMA**

Muharrir: I. Quvondiqova

Texnik muharrir: R. Haydarov

Musahhih: I. Pirmetova

Bosishga ruxsat etildi 29.12.2009. Bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
Bosma tabog‘i 7,0. Adadi 200 nusxa. Buyurtma № 8

Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent sh., Yusuf Xos Hojib, 103.